

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI

UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK

Nosirov Odiljon G'ofur o'g'li

XITOIY TILIDA AVTOMOBILSOZLIK ATAMALARINING LEKSIK-
SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI

Lingvistika 5A120102 (xitoy tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va

Ilmiy rahbar:

Himoyaga tavsiya etildi

Tyu Txi Kim Zung

Kafedra mudiri

Ibragimova M.M

“ ” _____ 2017 yil

Toshkent-2017

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. Xitoyda avtomobilsozlik sohasining rivojlanish tarixidan.....	8
1.1. Xitoyda avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.....	8
1.2. Xitoy tiliga avtomobilsozlik atamalarining o‘zlashtirish usullari.....	13
1.2.1. Semantik kalkalash usuli asosida o‘zlashtirilgan atamalar.....	15
1.2.2. Fonetik kalkalash usuli asosida o‘zlashtirilgan atamalar.....	18
I Bob bo’yicha xulosa.....	23
II BOB. Avtomobilsozlik atamalarining leksik-semantik tahlili.....	24
2.1. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining affiksatsiya yo‘li orqali yasalishi.....	25
2.2. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining kompozitsiya usuli orqali yasalishi.....	30
II Bob bo’yicha xulosa.....	35
III BOB. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining struktur va miqdoriy tahlili.....	36
3.1. Xitoy tilida avtomobilsozlikka oid atamalarning struktur tahlili.....	36
3.2. Matnlar asosida avtomobilsozlikka oid atamalarning struktur tahlili	51
III Bob bo’yicha xulosa.....	72
XULOSA.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	70

KIRISH

Hozirgi kunga kelib Xitoy barcha sohalarda tez suratlar bilan rivojlanishda davom etib, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib bormoqda. Xitoy davlati iqtisodiy jihatdan rivojlanib borgan sari, XXR bilan turli sohalarda hamkorlik ham o'sib bormoqda.

Shu yilning 11-15-mayida bo'lib o'tgan 一带一路 “Bir mintaqa - bir yo'l” xalqaro forumida ham ikki davlat uchun ko'pgina foydali hamkorlik hujjatlari imzolandi. Bu esa do'stona munosabatlar yanada mustahkamlanishi uchun yana bir katta qadam bo'ldi. “Bir mintaqa-bir yo'l” tashabbusi, iqtisodiy resurslar tartibli va erkin harakat qilishini ta'minlash, ularni samaraliroq taqsimlash, “bir belbog” bo'lib joylashgan mamlakatlar iqtisodiy siyosatini o'zaro muvofiqlashtirish, hududiy hamkorlikni kengaytirish va uning ochiq shaklini tashkil etishdir.

XXR bosh raisi Si Jin Pin tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu forumda prezidentimiz quyidagicha nutq qiladilar:¹ ““Bir mintaqa – bir yo'l” forumi ham hozirgi zamonda dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirish, savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, turizm, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi”.

Ikki davlatning turli sohalardagi o'zaro hamkorliklari natijasida xitoy tilini o'rganishga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Bu jihatlar ham ushbu tadqiqot ishimizning dolzarbliklaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarining leksik-semantik tahliliga bag'ishlangan. Atamashunoslikning ushbu muammosini tahlil qilish hozirgi zamon ijtimoiy rivojlanish davrida tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda atamashunoslik kishilar muloqotida va maishiy hayotda muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu borada atamashunoslik muayyan ma'lumot olish manbai, mutaxassislikni egallash vositasi va hattoki, fan-texnikaviy rivojlanishni tezlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Atamashunoslik ma'lumot manbai

¹Prezidentimizning Xitoyda o'tkazilgan “Bir mintaqa- bir yo'l” forumida so'zlagan nutqidan, 15.05.2017

boʻlib xizmat qilibgina qolmay, shuningdek, leksikaning tashqi taʼsirlarga eng sezuvchan qismi hisoblanadi. Ijtimoiy muhitning tilga taʼsirini eng koʻp terminlogiyada koʻrishimiz mumkin.

Avtomobilsozlik sohasiga oid leksik birliklarning oʻrganilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga bir qator sabablarni keltirib oʻtish mumkin. Avtomobilsozlik sohasi dunyo miqyosida eng yirik tarmoq hisoblanadi hamda uning hissasi yildan yilga oʻsib bormoqda. Har yili dunyoda 1 milliard donagacha avtomobil ishlab chiqarilmoqda va bu raqam toʻxtovsiz ravishda oʻsib bormoqda. Koʻpgina davlatlarda avtomobilsozlik sohasi iqtisodiyotning asoslaridan biri hisoblanadi. Avtomobilsozlik sohasining qay darajada rivojlanganligi muayyan mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi koʻrsatkichi hisoblanadi.

Ishlab chiqarilayotgan avtomobillar sonining oʻsishi bilan ularning tuzilish jihatidan texnologik takomillashuvi ham kuzatilmoqda. Endilikda xaridorlar yoqilgʻi tanlash imkoniyatini beruvchi gibrid avtomobillarni sotib olishlari mumkin boʻlmoqda. Istiqbolda uglevodorodli yoqilgʻi tobora kam ishlatilib, oʻz oʻrnini texnologik va ekologik energiya turlariga boʻshatib beradi. Bundan tashqari, kelajak avtomobillari – bu nafaqat harakatlanish vositasi, balki muahndislarning eng ilgʻor fikrlari mahsuli boʻlib, avtomobil egasiga faqat haydash imkonini beribgina qolmay, uning ayrim xatti-harakatlarini oʻrnini bosa oladi.

Avtomobilsozlik sohasining bunday yutuqlarga erishishi mazkur soha bilan bogʻliq atamashunoslikning ham kengayishiga olib keldi, hamda bu mavzuga oid bir qator qoʻllanmalar chop etilmoqda. Ammo keltirilayotgan maʼlumotlarning har xilligi baʼzan maxsus adabiyotlar va texnik hujjatlarni oʻrganishda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shunga oʻxshash muammolar atamalarining tartibga solinishi va ularning kompleks tarzda bir xillashtirilishini talab etadi. Maʼlumki, atamalarining samarali bir xillashtirilishi muayyan lingvistik tahlilga asoslangan boʻlishi lozim. Shu omillarni hisobga olgan holda mazkur ilmiy tadqiqot ishida yengil avtomobillar qismlarining leksik-semantik tahlili olib borildi.

Ilmiy tadqiqot ishining o'rganilganlik darajasi. Avtomobilsozlik sohasi hozirgi kunda eng rivojlangan sohalardan biri bo'lgani tufayli, ushbu sohaga tegishli atamalarning tahlili, ularning o'rganilishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur sohaga oid atamalar ko'plab rus tilshunoslari tomonidan tahlil qilingan bo'lib, biz ko'rib chiqqan ilmiy ishlardan quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Позднышева Инна Николаевна “Сопоставительный анализ автомобильных терминов систем в английском, французском и русском языках”, Алиев Т.Ф., Абсалямова Р.А. “Термины в сфере автомобилестроения” va boshqalar. Shuningdek xitoy tili va adabiyoti kafedrasida ham mazkur mavzuga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishining manbalari. Ushbu tadqiqot ishimiz mavzusi ustida izlanish olib borish jarayonida “百科图解词典” lug'ati, Горелов В.И. “Лексикология современного китайского языка”, Семенов А.Л. “Лексика китайского языка”, Яцюк Т.А. “Терминология в лингводидактическом аспекте”, Фролова О.П. “Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка” ilmiy kitoblari va www.doc88.com veb-sahifalari matnlaridagi avtomobilsozlik atamalaridan foydalandik.

Ilmiy tadqiqot ishining tadqiqot metodlari. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun to'plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo'llanilayotgan struktural, tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, tarjima metodlari yordamida tahlil etildi.

Tadqiqot ishining yangiligi.

- Avtomobilsozlik atamalari yig'ib chiqildi va leksiksemantik jihatdan tahlil qilindi;
- Avtomobilsozlik atamalarining o'zlashtirish usullari tahlil qilindi;
- Mazkur ish natijasida “Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalari mini-lug'ati” tuzish rejalashtirilgan

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi zamonaviy xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining leksik-semantik tahlilini ko'rib chiqish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Avtomobilsozlik atamalarini “百科图解词典”lug‘ati va www.doc88.com veb-sahifalaridagi “汽车技术分析常用英语词汇” maqolalari, shu bilan birga olimlarning ushbu soha bo‘yicha olib borgan izlanishlari asosida ko‘rib chiqish;

2. Xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarining o‘zlashish usullarini aniqlash;

3. Xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarini leksik–semantik tahlil qilish;

4. Atamalarining tasnifini keltirish;

5. Xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarini struktur tahlil qilish;

Tadqiqot ishining obyektiva predmeti. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishining obyekti - xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalari, predmeti esa - xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarining leksik – semantik tahlili hisoblanadi.

Tadqiqot ishiining amaliy ahamiyati. Biz ushbu tadqiqot ishimizda avtomobilsozlik sohasiga oid terminlarni struktur jihatdan tahlil qilib chiqdik. Terminologiya sohasida ish olib boradiganlar yoki avtomobilsozlik bo‘yicha tarjima olib borayotganlar, shuningdek, xitoy tilini o‘rganuvchilarga qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Ushbu ish kirish qismi, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar soni 83 ta.

Kirishda ilmiy tadqiqot ish mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, ishning yangiligi, manbalari, tadqiq etish usullari, obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Birinchi bob “Xitoyda avtomobilsozlik sohasining rivojlanish tarixidan” deb nomlanadi. Ushbu bob ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1.1 bo‘limda Xitoyda avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi, avtomobilsozlik zavodlarining vujudga kelishi va hozirgi kunda avtomobilsozlik sohasining Xitoy iqtisodiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi. 1.2 bo‘limda Xitoy tiliga avtomobilsozlik atamalarining o‘zlashtirish usullari, xususan, mazkur bo‘limning 1.2.1 faslida semantik kalkalash va 1.2.2 faslida fonetik kalkalash usullari orqali o‘zlashtirilgan atamalar haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchi bob “Avtomobilsozlik atamalarining leksik-semantik tahlili” deb ataladi. Ushbu bob ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 2.1 bo‘limda Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining affiksatsiya yo‘li orqali yasalishi haqida so‘z yuritiladi, 2.2 bo‘limda Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining kompozitsiya usuli orqali yasalishi haqida tahlil keltiriladi.

Uchinchi bob “Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining struktur va miqdoriy tahlili” deb nomlanadi va ikki bo‘limdan iborat: 3.1-bo‘limda xitoy tilida avtomobilsozlik teminlarining struktur tahlili beriladi, 3.2 bo‘limda esa

Xulosada tadqiq etilgan materiallar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etiladi.

I BOB. XITOIDA AVTOMOBILSOZLIK SOHASINING RIVOJLANISH TARIXIDAN

1.1. Xitoyda avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.

Avtomobilsozlik tushunchasi xitoy tilida “汽车制造业”[qìchē zhìzào gōngyè] deb ataladi. Xitoy madaniyati qancha o‘ziga xos bo‘lsa, uning avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishi ham shunchalik takrorlanmasdir. Xitoy avtomobilsozlik sanoati Amerika va Yevropa davlatlariga nisbatan kech paydo bo‘ldi. Avtomobilsozlik sanoatining xitoyda rivojlanish jarayonini biz turli davrlardagi o‘zgarishlar va avtomobillarning yangi ko‘rinishlari ta takomillashishi asosida quyidagi bir necha davrlarga bo‘lamiz:

- 1901-1950-yillar avtomobilsozlik sanoatining kirib kelish davri;
- 1950-1958 yillar avtomobillarning ilk yaratish davri;
- 1958-1987 yillar avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish davri;
- 1987-yildan hozirgacha bo‘lgan davr.

1901-yilda Vengriyalik ismi Lins bo‘lgan kishining Amerikada ishlab chiqarilgan Oldsmobile² avtomobilini Shanhaiga olib kirishi bilan, Xitoy avtomobilsozlik sanoati yuzaga keldi va bu hodisadan boshlab xitoyda avtomobildan foydalanish tarixi boshlanadi.³

1930-yilda Shanhaida avtomobilning mayda qismlarining savdosi yo‘lga qo‘yildi. Milliy avtomil zavodini tashkil qilish va ishlab chiqarish istagini Sun Zhong Shan olg‘a surib chiqdi.

1931- yilda Zhang Xueliang⁴ning topshirig‘iga ko‘ra uning arsenalida yagona nusxada Xitoyda ilk avtomobil – Ming Sheng nomli yuk mashinasi ishlab

²Oldsmobile avtomobil markasi bo‘lib, ushbu avtokompaniya AQSHda 1879-yilda Roy Smit tomonidan tashkil qilingan.

³李文洁论中国汽车工业的发展: “中国科技博览”, 2014 年第 18 期

⁴张学良 Zhāng Xuéliáng(1901-2001) - Manchjuriyaning1928—1931 yillardagirahbari, gomindanXitoyining 30-yillardagiengilg‘oryetakchilaridanbiri.

chiqariladi.⁵ Yapon istilosi va fuqarolar urushi Xitoyda o'z avtomobilsozlik sanoatining paydo bo'lishiga to'sqinlik qilib kelgan. Kommunistik Xitoyda avtomobil sanoatining tashkil topishida asosiy xizmat XXRning asosiy strategik hamkori va "katta aka"si – SSSRga tegishlidir. Xitoyda avtomobil sanoatining tug'ilgan yili 1956 yil bo'ldi, ushbu yilning 15 iyunida Changchun shahrida sovet mutaxassislarining ishtirokida FAW (First Automobile Works – Birinchi avtomobil zavodi) nomli zavod ochildi va iyul oyida bu yerda Jiefang Ca10 rusumli yuk mashinasi ishlab chiqarildi. Zavod faoliyatining 30 yili davomida 1,2 mln. dona Jiefang Ca10 ishlab chiqarilgan.

1958 yilda ikkinchi zavod - BAW (Beijing Automobile Works – Pekin avtomobil zavodi) qurilib, bu yerda ishlab chiqarilgan avtomobillar asosan harbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan edi. Mazkur zavodda ishlab avtomobillardan eng katta mashhurlikka BJ212 yengil avtomobili erishdi.

1958 yilda Nanjing shahrida ham 2,5 tonna yuk tashishga mo'ljallangan Yuejin NJ130 rusumli yuk mashinalarining ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi, mazkur yuk mashinalari uchun asos qilib Γa3-51 yuk mashinasi olingan edi. 1963 yilda JAW (Jinian Automobile Works) korporatsiyasi tomonidan 8 tonnagacha yuktashishga mo'ljallangan Huanghe JN150 rusumli yuk mashinasi ishlab chiqarila boshlandi.

Shunday qilib, Xitoyning yosh avtomobil sanoati ilk qadamlarini rejali iqtisodiyotga muvofiq qo'ygan bo'lib, uning asosiy mahsuloti bo'lib o'rtacha og'irlikdagi yukni tashishga mo'ljallangan yuk mashinalari hisoblangan.

Yengil avtomobillar ishlab chiqarilishi haqida gap ketganda, "Dongfeng" rusumli avtomobillarni eslatib o'tish joizdir, mazkur yengil avtomobillar 1950 yillar oxirida ishlab chiqarila boshlangan. 50-yillarning oxiri 80-yillarning boshlarida FAW zavodida mamalakatning yetakchi arboblari uchun ishlab chiqarilgan "Hongqi" rusumli yengil avtomashinalari nisbatan kuchliroq

⁵Автомобильная промышленность КНР. От истоков к перспективам. С.А. Морозов, к.т.н. / Д.Г. Коробов. ООО«ПолиНОМ». Журнал «Автопром сегодня», №2 (73) 2012, стр.12

mashhurlikka erishgan edi. Madaniy inqilob davrining boshlanishi davrida turli ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan 15 korxonada o'nlab avtomashinalar ishlab chiqarilar edi.

1965- yilda Mao Zedong hukumati sanoat korxonalari qurilishigatexnik ko'mak ko'rsatishda SSSRning majburiyatlarini bekor qilish haqida qaror qabul qiladi, bu bilan SSSRning ilmiy-texnikaviy ko'magidan bosh tortadi. Mamlakatni o'z kuchiga suyanuvchi "Katta sakrash" siyosati kutardi. G'oyaviy sabablar natijasida yengil avtomobillar ishlab chiqarilishi deyarli to'xtatildi.

1978 yilda aslida Deng Xiaopin tomonidan boshqariladigan Xitoy Kommunistik Partiyasi rahbarligida, "islohotlar va ochiqlik siyosati" deb nomlangan islohotlar boshlandi, mazkur siyosatning asl maqsadi iqtisodiyotni jonlantirish va "Katta sakrash" tajribalarining salbiy oqibatlariga barham berishga qaratilgan edi. Dastlabki bosqichlarda mazkur islohotlar qandaydir aniq strategik rejaning yo'qligi bilan ajralib turdi. Ishlab chiqarishni o'stirish uchun islohotlarning dastlabki paytlarida mamlakat rahbarlari kichik xususiy tashkilotlarning, jumladan hunarmandchilikka oid, tashkilotlarning tashkil etilishini qo'llab quvvatladi, bu esa avtomobil sohasida band bo'lgan, ammo hali zamonaviy yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qodir bo'lmagan korxonalarning soni oshishiga olib keldi. Bunday yechim bo'lib chet el investitsiyalarini jalb qilish bilan xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilar uchun sharoit yaratish chorasi xizmat qildi, bu chora esa mamlakat hududida qo'shma korxonalarning maqbulligini oshirar edi. Dunyo avtogigantlari uchun bir tomondan import qilinadigan mahsulot uchun yuqori miqdordagi bojlar, boshqa tomondan esa, benihoya katta bozor va cheksiz miqdordagi ishchi kuchi taklif etilgan ediki, bu ishlab chiqarish yuqori rentabelligini ta'minlar edi. Bundan tashqari avtomobillar importini yiliga 30 ming donagacha cheklovchi kvotalar ham kiritilgan edi.

Tashkil etilayotgan korxonalar dastlabki 3-5 yil davomida bir qator soliqlardan ozod etilar, biroq tashkil etilayotgan qo'shma korxonalarda ikkala

tomonning teng hissasi majburiy edi. Xitoy avtomobil sanoatining istiqboldagi rivoji uchun asosiy fondlar aynan shunday tashkil etila boshlangan edi.

Xitoy tomonidan qo'yilgan talablarga birinchi bo'lib Volkswagen konserni rozi bo'ldi, mazkur konsern tomonidan 1984 yilda Shanghai Automative Group bilan birgalikda ilk qo'shma korxona – Shanghai-Volkswagen, 1985 yilda esa ikkinchisi – FAWVolkswagen qo'shma korxonalari ishga tushirildi. Ilk model sifatida Volkswagen Santana rusumi tanlandi, bungachamazkur yengil avtomashinani ishlab chiqarish va sotishda Braziliyada yirik muvaffaqiyatga erishilgan bo'lib, Xitoyda u haqiqatda “xalq avtomobili”ga aylandi – mazkur rusumning ishlab chiqarish hajmi yiliga 200 ming donani tashkil etdi. Keyinchalik tashkil etilgan Dongfeng-Citroen, Chang'an Suzuki, Shanghai GM, Guangzhou Honda, Beijing Jeep qo'shma korxonalarining chet el mablag'lari 2004 yilga kelib 20 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bugungi kunda XXRda dunyoning deyarli barcha rusumlaridagi avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari tijorat texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha ham qo'shma korxonalar ko'plab tashkil etildi. 1980-yillarning boshida XXR hukumati va DaimlerBenz korporatsiyasi tomonidan Baotou Beifang Benchi Heavy-Duty Truck qo'shma korxonasi tashkil etilgan edi, mazkur qo'shma korxona “Beifang Benchi” (“Shimoliy Benz”) nomi bilan mashhur bo'lgan bo'lib, unda Daimler-Benz texnologiyasi asosida avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi. Bundan tashqari, boshqa yuk mashinalarini ishlab chiqaruvchilar ham g'arblik hamkorlar bilan qo'shma korxonalar tuzishgan edi, CNHTC (China National Heavy Duty Truck Corporation) korporatsiyasi Steyr va Volvo bilan ittifoq tuzishga erishgan edi, mazkur ittifoq HOWO yuk mashinalarini ishlab chiqarish bilan mashhur edi; Shaanxi Automobile Group Co. Ltd ham MAN bilan hamkorlikda ishlab chiqaradigan og'ir yuk mashinalari nom chiqargan edilar.

Hozirgi kunda Xitoyda avtobuslarning 70 ga yaqin rusumlarini sanab berish mumkin. Shaharlararo qatnaydigan zamonaviy avtobuslar, asosan, Yevropa yoki Yaponiya korxonalari bilan hamkorlikda ishlab chiqariladi. Xuddi shunday,

Kassbohrer (Setra) nemis kompaniyasi bilan hamkorlikda Ankai rusumli avtobuslar, Volv bilan hamkorlikda Silver Bus va Shanghai Sunwin rusumidagi avtobuslar; MAN bilan hamkorlikda Yutong avtobuslari; Scania bilan hamkorlikda King Long, Higer avtobuslari; Shenfei Hino, Golden Dragon, Yaxing-Benz va boshqa rusumdagi avtobuslar ishlab chiqarilmoqda. Shahar ichida va shahar atrofidagi tumanlarda harakatlanuvchi avtobuslar, asosan, Xitoy korxonalari mustaqil ravishda ishlab chiqariladi. Bunday avtobuslarga misol qilib ko'pgina zavodlarda ishlab chiqariladigan Toyota Coaster rusumli avtobusini keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Xitoyning asosiy avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalari bo'lib FAW, SAIC va Dongfeng kompaniyalari hisoblanadi.

Shu o'rinda O'zbekistonda ham avtomobilsozlik sohasining rivojlanish tarixiga bir nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizning barcha sohalarida mislsiz o'zgarishlar ro'y berdi. Shu jumladan, avtomobilsozlik sohasida ham. 1992 yilda loyihalaniib, rejalashtirilib, 1996 yilda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda "Uz-Daewoo" Co qo'shma korxonasi ishga tushdi (hozirgi GM-Uzbekistan). Korxonada sekin-astaTiko, Damas, Neksiya kabi avtomobillar ishlab chiqarildi va bir qator chet mamlakatlariga eksport qilina boshlandi. Tez orada avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar orasida o'z nufuzini topa boshladi. Hozirda "GM-Uzbekistan"qo'shma korxonasidan Matiz, Damas 2, Neksiya 2, Lasetti, Spark kabi avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Yana bir narsa, Kaptiva, Malibu, Cobalt kabi zamon talablariga to'la javob beradigan avtomobillar ham mamlakarimizda yig'ilmoqda. "GM-Uzbekistan"qo'shma korxonasini butlovchi qismlarini tayyorlab beruvchi bir qancha qo'shma korxonalar bunyod etildi.

Mazkur sohasining bunday sur'atlarda rivojlanishi boshqa sohalarga, xususan, tilshunoslik sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chunki, ma'lum bir soha rivojlangan sayin unga yangi atamalar, yangi tushunchalar ham ko'payib boraveradi. ularni tahlil qilish, tizimlashtirish va tartibga keltirish esa

tilshunoslikning, xususan, atamaologiyaning vazifasidir. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda aynan avtomobilsozlik sohasiga oid atamalarni yigʻib, ularni leksik-semantik tahlil qilishga harakat qildik.

1.2. Xitoy tiliga avtomobilsozlik atamalarining oʻzlashtirish usullari

Maʼlumki, xitoy tili leksikasi yangi soʻzlarni yasash usuli orqali boyib, kengayib kelgan. Shu bilan birga, XX asrdan boshlab xitoy tilining lugʻat tarkibi chet tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar hisobiga ham kengayib bormoqda. Xitoy tilida ular 外来词 wàilàicí, yaʼni chetdan kirib kelgan soʻzlar deb ataladi.

A.Hojiyev “oʻzlashtirish deganda – oʻzaro taʼsir, aloqa natijasi sifatida bir til unsurlarining boshqa tilga oʻtishi tushuniladi”, deb koʻrsatgan⁶. Bir tilning ikkinchi tilga taʼsir etishi asosan fonetika yoki grammatikada emas, balki aynan leksikada yaqqol koʻrinadi. Bir qator olimlar, xitoy tiliga koʻpdan-koʻp chet til elementlarining kirib kelishi salbiy hodisa emas, deb taʼkidlaydilar. Ularning fikricha, oʻzlashtirma elementlar tilga ijobiy taʼsir etib, uni ixchamlashtiradi va jozibali boʻlishga yordam beradi⁷. Xitoy tili donor tilga nisbatan retsipient, yaʼni qabul qiluvchi til vazifasini bajaradi. Bu yerda donor, masalan, ingliz, fransuz yoki nemis tili boʻlishi mumkin. Xitoy tiliga kiruvchi chet leksik birliklar xitoy tili rivojlanish tarixi qonun-qoidalariga binoan qayta ishlovga uchragan. Misol uchun, agar xitoy tili fonetikasidagi tovushlarga oʻzlashtirilgan soʻzlarning tovushlari mos kelmay qolsa, u holda oʻzlashtirilgan soʻzlarning tovushlari oʻzgartiriladi. Faqat ana shunday qayta ishlovlar tufayli ushbu soʻzlar xitoy tiliga oʻzlashadi.

⁶ А.Ҳоҗиев.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2002.- 105 б.

⁷ Чжоу Цзумо. Ханьюй цихуй цзянхуа. - Пекин, 1962. – 7 б., Чжан Цзин. Цы, цыцзу, цзюйцзы. - Харбин, 1984. – 32 б.;Цзинь Шаочжи. Цихуй. - Пекин, 1963. – 8 б., Чжу Дэси. Юйфа цзяни. - Пекин, 1982. –32 б., Чжан Шилу. Сяосюэ цихуй цзяосюэ цзибень чжиши цзянхуа .- Ханчжоу, 1956. –58 б., Yuen Ren Chao. A Grammar of Spoken Chinese. – Los Angeles, 1967.- P.189., ЯньЦзинсюань. Ханьюйисюэцигоуцифа. // Юйяньцзяосюэюйяньцзю. № 2. - Пекин, 1983. –89 б., ЧжанЧжигун. Сяньдайханьюй, 1 том. - Пекин, 1983. – 38 б.;

Atrof-muhitni himoya qilish, demografiya, epidemiya, epizotiya, epifitotiya, ommaviy qirish qurollari tarqalishini oldini olish, xalqaro aloqalarning rivojlanishi kabi jarayonlar tilning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Masalan, 2003- yilning bahor oylarida Xitoyda avval uchramagan gripp epidemiya xarakterini oldi. Jarayon boshlanishida Xitoy, Gongkong va Tayvan ommaviy axborot vositalari bu epidemiyaga feiyan dianxing (tipik bo'lmagan pnevmoniya), deb nom berdilar. Keyinroq, Gongkong olimlari epidemiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lgan virusni aniqladilar, uning tabiatini o'rgandilar va unga "yanzhong jixing huxi dao zheng hou qun" (og'ir o'tkir respirator sindromi) degan nom berdilar. Ammo bu tibbiyot sohasiga oid nom ommaviy axborot vositalarining talabiga mos emas edi. Shu sababli, Tayvan ommaviy axborot organlari inglizcha SARS (Severe Acute Respiratory Syndrome) abbreviaturasini qabul qildilar. Xitoyda bu kasallik oddiyroq atama – sasibing yordamida ifodalanadi. Umuman olganda, Xitoy atamaologiya sistemasi ko'proq modernizatsiyaga uchramoqda va xorijiy tillar bilan nisbatan ko'proq integrallashmoqda. Tayvan va Gongkongda esa xitoy tilini alohida g'amxo'rlik, xushyorlik va e'tibor bilan saqlash tendensiyalari nisbatan kuchliroq, degan mulohazalar ham yo'q emas. Bu yerda ikki holat bor. Birinchidan – til rivojlanishi, ikkinchidan – tilning ifloslanishi vao'z mohiyati, mustaqilligi, jozibasini qisman yoki butunlay yo'qotish xavfi.

Xitoy tilida mavjud bo'lgan zamonaviy atamalarning ko'pi haqiqatdan asl xitoycha yoki asl xitoycha so'z va morfemalar kombinatsiyasi (yig'indisi) ko'rinishida bo'lsada, ular o'zga yurtlardan kirib kelgan turli ta'limotlar tufayli vujudga kelgan⁸. Bu yerda maxsus ilmiy izlanish obyekti mavjud, desa bo'ladi. Xan millati soni jihatdan ko'p millat bo'lganligi sababli (dunyo aholisining 22%ini tashkil etadi) xitoy tili chet tillardan kirib kelayotgan har bir atamai transformatsiyalaydi, uni xitoychaga imkoniyat qadar yaqinlashtiradi, chet til atamaining o'ziga xos birlamchi xususiyatlari kamayadi yoki butunlay yo'qoladi.

⁸Иванов И.И. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: Наука, 1978.- 118 б.

O'zlashgan so'zlar - millatlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida tilda yuzaga keladigan so'zlar. Boshqa davlatlar bilan munosabat va globalizatsiya natijasida tilda paydo bo'ladigan, boshqa tildan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar yoki chetdan kelgan so'zlar deb ataladi.

Boshqa tillardan leksik o'zlashish asosan uch usulga ajratiladi:⁹

1. Fonetik jihatdan o'zlashgan so'zlar 音译
2. Semantic jihatdan o'zlashgan so'zlar 意译
3. Fonetik-semantic o'zlashgan so'zlar 音译加意译

Quyida biz xitoy tili avtomobilsozlikka tegishli bo'lgan atamalarning o'zlashish ko'rinishlari o'rganamiz va tahlil qilib chiqamiz.

1.2.1. Semantic kalkalash usuli asosida o'zlashtirilgan atamalar

“Kalka” (calque – kopya, taqlid). O'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa bir til birligi¹⁰. Leksik, semantic, frazeologik kalkalar bo'lishi mumkin. Boshqa bir tilda mavjud bo'lgan so'zning ta'siri natijasida yangi so'zning paydo bo'lish hodisasi kalka usuliga o'zlashtirishning muhim usuli sifatida qarashga imkon beradi.

Kalkalash chet tillardan so'z o'zlashtirishning eng muhim usuli hisoblanadi. Semantic o'zlashishning fonetik o'zlashishdan farqli jihati shundaki, ular xitoy tili leksik elementlaridan yasaladi va o'zining tovush va grafik ko'rinishi jihatdan xitoy leksikasida mavjud so'zlardan farq qilmaydi. Semantic jihatdan o'zlashgan so'zlar til sistemasiga oson kiradi va nutqda erkin qo'llaniladi.

Kalkalash- xitoy tili lug'at tarkibini boyitishda eng oddiy va qulay usul hisoblanadi.

⁹ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М., 1978.- 143б.

¹⁰ Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2002.- 47 б.

L.Blumfild kalkalarni chet soʻzlar tarjimai yoki oʻzga soʻzlar bilan ifodalangan mazmunni oʻz tilida ifodalash uchun qoʻllanilgan soʻzlarning tanlanishi, deb yozgan¹¹. A.Reformatskiy quyidagi fikrni bildirgan: “Kalkalar chet tildagi soʻzning qismma-qism tarjimai yoki tarjima qilingan elementlarning mexanik ravishda oʻzaro qoʻshilishi natijasida hosil boʻladigan ibora, soʻz. Shu tarzda kalka usulini qoʻllaganda elementlarning kombinatsiyasi oʻzlashtiriladi, elementlarning oʻzlari esa oʻzga tildagi emas, balki oʻz til materiali boʻlib xizmat qiladi”¹². A.Hojiyev semantik kalka atamaiga shunday izoh bergan, “Semantik kalka – oʻzga tilga oid soʻz bildiradigan maʼnoni oʻzlashtirish natijasida oʻz tilidagi soʻzga shu maʼnoni berilishi”¹³.

V.Ivanov oʻzlashtirishni uch turga boʻliboʻrganadi:

1. Kalkalar
2. Etimologik kalkalar
3. Semantik kalkalar¹⁴.

I.Zograf oʻzlashtirishning 3 asosiy turi sifatida quyidagilarni koʻrsatib oʻtadi:

1. Toʻgʻridan toʻgʻri leksik oʻzlashmalar
2. Kalkalash usuli
3. Semantik oʻzlashmalar¹⁵.

V.Gorelov oʻzlashtirishning kalka usulini semantik oʻzlashtirish, deb nomlagan va bu usul yordamida yangi soʻzlar hosil boʻlishini taʼkidlagan. U kalkalarni ikki turga boʻlib oʻrganadi:

¹¹ Блумфильд Л. Язык. М., 1968.- 499-502 б.

¹² Реформатский А. Введение в языкознание. - М., 1955.- 116 б.

¹³ Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2002.- 9 ва 142 б.б.

¹⁴ Иванов И.И. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: Наука,1978.- 118 б.

¹⁵ Зограф И. Монгольско – китайская интерференция (язык монгольской канцелярии в Китае). – М.: «Наука», 1984. – С. 38.

1. Struktural kalka

2. Etimologik kalkalar¹⁶.

Yuqoridagi o‘zlashmalar turidan tashqari yana bir tur mavjudki, u o‘zida o‘zlashtirishning ham fonetik, ham semantik usulini mujassamlashtirgan, Ch.Xokket bu kabi o‘zlashtirmani “aralash o‘zlashtirma” (loan blends) ¹⁷. Z.Novotna esa ularni gibrid so‘zlar (hybrid words) deb atagan¹⁸. Muallif gibrid so‘zlarni alohida ajratib o‘rganmay, balki ularni kalka yoki fonetik o‘zlashmalarning bir turi sifatida ko‘rib chiqishga o‘z e’tiborini qaratgan.

Avtomobilsozlikka oid atamalar ichida semantik kalka asosida o‘zlashtirilgan so‘zlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. 拖拉机¹⁹ [tuōlājī] – traktor. Bunda: 拖 – sudramoq, tortmoq + 拉 – tortmoq + 机 – qurilma nomini yasovchi suffiks.

2. 挖土机²⁰ [wātǔjī] – ekskavator. Bunda: 挖 – qazimoq + 土 – yer, tuproq + 机 – mashina.

3. 大众²¹ [dàzhòng] – “Volkswagen” Germaniyaning mashhur avtomobil markasi. Tarjimasi “xalq uchun”, ya’ni oddiy aholi qurbi yeta oladigan hamyonbop avtomashina ishlab chiqarish. Xitoy tiliga ushbu atama 大众 bo‘lib kirdi. Bunda: 大 – katta + 众 – xalq so‘zlari orqali yasaldi.

4. 行驶汽车²² [xíngshǐqìchē] – vnedorojnik. Bunda: 行驶 – sayohat qilmoq + 汽车 – avtoulov. Ya’ni turli to‘siqli yo‘llardan ham o‘ta oladigan maxsus mashina. Avtomashinalar uchun maxsus harakatlanish yo‘li bo‘lmagan joylarda ham harakatlana oladigan mashina.

¹⁶Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М., 1978.- 114 б.

¹⁷Hockett C.F. A course in Modern Linguistics. - New York, 1963.- 46 б.

¹⁸Novotna Z. Contributions to the study of Loan words and hybrid words in Modern Chinese. - “ Archiv Orientalni” vol. 37., 1969.-17 б.

¹⁹俄汉大辞典。 – 北京：商务印书馆，1999 年。 – 页 294。

²⁰Ko’rsatilgan manba. – b.300.

²¹Ko’rsatilgan manba. – b.110.

²²Ko’rsatilgan manba. – b.260.

5. 越野车²³[yuèyěchē] – vnedorojnik. Bunda: 越野 – mamlakatni kesib chiqmoq + 车 – avtoulov. Ya’ni turli to’siqqli yo’llardan ham o’ta oladigan maxsus mashina. Avtomashinalar uchun maxsus harakatlanish yo’li bo’lmagan joylarda ham harakatlana oladigan mashina.

6. 沙漠车²⁴[shāmòchē] – cho’lda harakatlana oladigan avtomashina. Bunda : 沙漠 – cho’l + 车 – avtomashina. Bu atama o’z nomi bilan nima vazifa bajarish uchun mo’ljallanganligini bildirib turibdi.

7. 商务车型²⁵[shāngwùchēxíng]- biznes klass avtomashina. Bunda 商务 – biznes + 车型 – mashina turi kabi so’zlardan tuzilgan. Ushbu so’z ingliz tilidagi “Business” so’zini o’slashishi orqali hosil bo’lgan.

8. 多用途车²⁶[duōyòngtúchē] – keng qamrovli, universal avtomashina. Bunda 多用途 – universal, ko’p tarmoli + 车 – avtomashina so’zlaridan yasalgan. Ushbu so’zdagi universal so’zi ingliz tilidagi “Multipurpose” so’znini o’slashtirilishi orqali yasalgan.

9. 箱形客货两用车²⁷[xiāngxíngkèhuòliǎngyòngchē] – quti formali kichik furgon. Bunda 箱形– quti formali + 客– yo’lovchi + 货– yuk + 两用车 – ko’p tarmoqli avtomashina. Ushbu so’z ham ingliz tilidagi “Box-shaped mini-vans” so’zining xitoy tiliga tarjima qilinishi orqali o’zlashgan.

10. 厢式车²⁸[xiāngshìchē] furgon. Bunda 厢式 – quti ko’rinishida + 车– avtomashina. Bu so’z ingliz tilidagi “van” so’zini xitoy tiliga o’zlashishi. Bunda avtomashinani ko’rinishiga taqlid orqali yangi so’z hosil qilingan.

1.2.2. Fonetik kalkalash usuli asosida o’zlashtirilgan atamalar

²³俄汉大辞典。– 北京：商务印书馆，1999 年。– 页 165.

²⁴Ko’rsatilgan manba. – b.260.

²⁵Ko’rsatilgan manba. – b.266.

²⁶Ko’rsatilgan manba. – b.105.

²⁷Ko’rsatilgan manba. – b.105.

²⁸俄汉大辞典。– 北京：商务印书馆，1999 年。– 页 134.

L.Blumfild fikricha: “Chet til so‘zining o‘zlashtirilishida albatta ba’zi bir tovushlarning o‘zgarishi yuzaga keladi, bunga ko‘ra chet til so‘zining shakli o‘zlashtirayotgan tilning fonetik xususiyatlariga ko‘ra o‘zgaradi. Fonetik o‘zlashtirish jarayonida so‘zlovchilar o‘zga til tovushlarini o‘z tildagi fonemalar bilan almashtiradilar”²⁹. Deyarli barcha tillarda fonetik o‘zlashmalarning va kalkalarning har xil turlari borligi aniqlangan³⁰. Shu bilan birga, o‘zlashmalarning aralash shakllari ham mavjud. Bu kabi shakllarda ham fonetik o‘zlashtirmalar, ham kalkalar uyg‘unlashasi. Lekin turli tillarda o‘zlashtirishning u yoki bu turi qo‘llanilishi jihatidan miqdori turlichadir. Xitoy tilida kalka usuli asosan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamaologiya tizimida ishlatiladi. Ammo fonetik o‘zlashtirmalarning soni xitoy tilida nisbatan kam³¹. Gao Minkay va Liu Zhangtanlarning bergan ma’lumotlariga qaraganda, xitoy tilida inson faoliyati bilan bog‘liq yevropa, mo‘g‘ul, manchjur, tibet tillaridan kirib kelgan 900 fonetik o‘zlashmalar mavjud. Mazkur mualliflar tomonidan sanskrit tilidan kirib kelgan 200ga yaqin fonetik o‘zlashmalar ham qayd qilingan³². Xitoy tilida fonetik o‘zlashmalarning miqdori cheklanganligini mutaxassislar turlicha izohlashadi³³. Bir guruh olimlar iyeroglifik yozuvning xususiyatlari o‘zga tildagi fonetik o‘zlashmalarni ifodalashga to‘siq bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Boshqa guruh tilshunoslar esa bunga asosiy to‘siq, deb xitoy tilining fonetik tuzilishini ko‘rsatishadi. Masalan, G.Gabelens “xitoy tili iyeroglifik yozuvi o‘zga til tovushlarini ifodalash uchun uncha mukammal bo‘lmagan usuldir...” deb

²⁹БлумфилдЛ. Язык. - М., 1968.-116 б.

³⁰СеменовА.Л.. Лексикакитайскогоязыка. М.: «Муравей», 2000 - 76 б.

³¹ Жуғрофий номлар, этнонимлар, атоқли отлар истисно тариқасида. Бу сўзлар хитой тилига фонетик жиҳатидан мослаштирилади.

³² Гао Мин – кай, Лю Чжен тань. Исследование заимствований в современном китайском языке. - Пекин, 1958.- 113 б.

³³ Гао Мин – кай, Лю Чжен тань. Исследование заимствований в современном китайском языке. - Пекин, 1958; Кленин И.Д.. Звуковые заимствования в современном китайском языке.// Труды военного института иностранных языков/- М., 1969, № 5; Чжан Цин-юань. Некоторые сведения, полученные в результате первичного анализа заимствований в современном китайском языке. –Шанхай : «Юйяньское луныцун», 1957, № 1.; Лю Цзесянь. Разве китайский язык не может иметь заимствований. – Пекин: «Чжунго юйвень», 1957, № 5.; Солнцев В.М.. Очерки по современному китайскому языку. - М.,1957.

aytadi³⁴. I.Klenin fikriga ko'ra, "xitoy tilining o'zga til tovushli o'zlashmalarini qabul qila olmasligining sababi uning iyeroglifik yozuvidadir"³⁵. Z.Novotna "Agar xitoy tili kelajakda yanada mukammallashgan xatni, ya'ni alfavitli xatni qo'llasa, u holda xitoy tilining leksik sistemasi chetdan bo'ladigan ta'sirlarga ochiqroq bo'ladi va yanada ko'proq xalqaro elementlarni qabul qila oladi", деб билади³⁶. A.Shprinsin quyidagi fikrni bildiradi: "Xitoy tiliga o'zga tildan o'zlashmalarning kirib borishiga asosiy to'siq uning lingvistik sistemasi emas, balki uning yozuv sistemasidir"³⁷. Iyerogliflar chet tili va xitoy tili so'zlarining tovushli tarkibini ifodalashda qiyinchilik tug'diradi, chunki ular alohida tovushlar va hattoki bo'g'inlarni ham emas, balki bir bo'g'inli so'zlar yoki bir bo'g'inli morfemalarni bir butunlik sifatida ifoda eta olmaydi. Xitoy tiliga o'zga tillardan fonetik o'zlashmalarning kirib borishiga to'sqinlik qiluvchi omil – bu xitoy tilidagi bo'g'inning morfologik (semantik) ma'noga ega ekanligida, deb qabul qilish mumkin. Iyeroglif yordamida ifodalangan har bir bo'g'in alohida bir ma'noga ega ekanligi bois, iyeroglifning o'zi u yoki abu ma'no bilan o'zaro bog'lanadi va faqatgina bo'g'in (tovush)larning fonetik yozuvi tariqasida qabul qilinmaydi. R.Forrest bu masala to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan: "Xitoyliklarda bir tovushni uning ma'nosidan ajratgan holdagi ko'rinishda yozish usuli mavjud emas. Ammo bu xususiyat har qanday tilning yozuvida bor. Masalan, bir qator iyerogliflar bilan ifodalangan ko'p bo'g'inli so'z o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki unda ushbu qatordagi har bir iyeroglifning ma'nosini belgilab chiqish ehtiyoji tug'iladi"³⁸. Bu haqda Z.Novotna "Xitoy tilida so'zlashuvchilar o'zlashtirishning bu turidan bexabar holda, ushbu so'zning grafik ko'rinishida umumiy ma'noni ifodalamagan yoki notartib yig'ma ko'rinishida bo'lgan yozuv belgilarning bir-biri bilan ma'no jihatidan bog'liq bo'lmaganligini ketma-ketlikdan

³⁴Gabelentz G.. Chinesische Grammatik. - Leihzig, 1881. – 21 б.

³⁵Кленин И.Д. Звуковые заимствования в современном китайском языке. // Труды военного института иностранных языков.// - М., 1969, № 5.- 17 б.

³⁶Novotna Z.. Contributions to the study of Loan words and hybrid words in Modern Chinese. - "Archiv Orientalni" vol. 37. 1969. – 316 б.

³⁷Shprinsin A.G.. Chinese-Russian Linguistic Contacts and Russian loan-words in Spoken Chinese. - "Countries and peoples of the Pacific Basin" (Summaries of articles by Soviet Scholars).- Moscow, 1971.- 78 б.

³⁸Forrest R. A. The Chinese Language. - London, 1948.- 28 б.

ko‘radi, xolos”, deb ko‘rsatgan va “Xitoy iyerogliflarining 90 %ga yaqinini tashkil etuvchi xitoy fonoideogrammlar yozilgan morfema bilan aniq bir semantik aloqada bo‘ladi”, deb izohlaydi³⁹. Xitoy tili o‘zga tildagi so‘zni fonetik tarzda o‘zlashtirayotganda, ushbu so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladi va har bir bo‘g‘inni iyeroglif yordamida ifodalaydi. Iyeroglif bo‘g‘inni uning tovushli ifodasi va semantikali ko‘rinishini tasvirlaydi. Har bir fonetik o‘zlashtirilgan so‘z xitoy tilida bo‘g‘inlar majmuasi ko‘rinishida, har bir bo‘g‘in o‘z ma‘nosiga ega bo‘ladi va bu ma‘no qolgan bo‘g‘inlarning ma‘nolari bilan va umuman butun so‘zning umumiy ma‘nosi bilan mos kelmaydi. Iyerogliflar yordamida yozilgan fonetik o‘zlashtirmalarni o‘qiganda xitoylik, avvalambor, har bir iyeroglifning ma‘nosiga o‘z e‘tiborini qaratadi, deb aytadi R.Forrest⁴⁰.

Yuqoridagi fikrlar asosida xitoy tilida bo‘g‘inlarga bo‘lish hodisasi semantik ma‘noga ega bo‘lganligi tufayli bu yilga fonetik o‘zlashtirmalar kirib kelishi cheklangan bo‘lishi mumkin. I.Klenin fikricha, “Fonetik o‘zlashtirmalarning xitoy tiliga kirib borishining cheklanganligining sababi xitoy tilidagi so‘zlarni ko‘p qismi ikki bo‘g‘indan iborat ekanligidadir. Ya‘ni ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar xitoy tilida nisbatan kam uchraydi, shu sababli ko‘p bo‘g‘inli chet tili so‘zlari xitoy so‘zining tabiatiga mos kelmaydi va qabul qilinishi qiyin kechadi⁴¹. Umuman, xitoy tiliga fonetik o‘zlashtirmalarning qiyinchilik bilan kirib borish jarayonini I.Oshanin, V.Solnsev, R.Forrest, I.Klenin, Z.Novotna, A.Shprinsin va boshqa tilshunoslarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin. V.Solnsevning fikricha, “Xitoy tilidagi bo‘g‘inlar miqdori hamda tovushlar o‘rtasida o‘zaro moslikning cheklanganligi bu tilga fonetik o‘zlashmalarning keng miqyosda kirib borishiga to‘sqinlik qiladi”⁴².

Xitoy tilida fonetik o‘zlashtirishning 3 turi mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

³⁹Novotna Z. Contributions to the study of Loan words and hybrid words in Modern Chinese. - “ Archiv Orientalni” vol. 37. 1969. – 316 б.

⁴⁰Forrest R. A..TheChineseLanguage. - London , 1948.- 45 б.

⁴¹ Кленин И.Д. Звуковые заимствования в современном китайском языке. // Труды военного института иностранных языков.//. - М., 1969, № 5.- 203 б.

⁴² Солнцев В.М.. Очерки по современному китайскому языку. - М.,1957.-67 б.

- To‘liq fonetik o‘zlashtirmalar (so‘zning har ikkala tilda ham o‘zaro to‘liq shakli uchraydi);
- To‘liq bo‘lmagan fonetik o‘zlashtirmalar – chet til so‘zining talaffuzi xitoy tili variantdagi so‘zning ko‘rinishi, talaffuzi bilan yaqin (undosh yoki unlilar o‘zgarishi yoki oxirgi undoshning tushirib qoldirilishi kuzatiladi);
- Qisman fonetik o‘zlashtirmalar – xitoy tilidagi chet til so‘zining manba tildagi so‘zning ko‘rinishi yoki talaffuzi bilan qisman mos kelishi (bu usulda ham unli, ham undoshlar o‘zgarib, manba tildagi undoshlarga so‘z o‘zlashtirilayotgan tilning unlisi qo‘shilib keladi)⁴³.

Bunday o‘zlashgan so‘zlar 音译词 yīnyìcí deb ataladi. Umuman olib qaraganda xitoy tilida fonetik jihatdan o‘zlashgan so‘zlar nisbatan kam. Fonetik jihatdan so‘zlarning o‘zlashishi asosan, ma’lum bir sferada, muayyan mutaxassislikka oid bo‘lgan so‘zlarda ko‘proq kuzatiladi.

O‘rganilgan avtomobilsozlik atamaları orasida fonetik kalka asosida o‘zlashtirilgan atamalar uchramadi, ammo mazkur sohaga yaqin soha bo‘lmish avtomobilsozlikatamaları ichida fonetik kalka asosida yasalgan atamalar ko‘plab uchraydi. Buni asosan avtomashinalarning nomlarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

1. 阿尔法罗米欧 [āěrfǎ luómǐōu] – “ALFA ROMEO” markasining o‘zlashmasi. Bunda 阿尔法罗米欧 iyerogliflari ma’no jihatdan emas, balki talaffuzi “ALFA ROMEO” so‘ziga yaqin bo‘lganligi uchun tanlab olingan.
2. 奥迪⁴⁴[àodí] – “AUDI” markasining o‘zlashmasi.
3. 宝马⁴⁵[bǎomǎ] – “BMW” markasining o‘zlashmasi.
4. 保时捷⁴⁶[bǎoshíjié] – “PORSHE” markasining o‘zlashmasi.

⁴³ Иванов В.В. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: «Наука», 1973. – 63 б.

⁴⁴ 刘粤. 现代汉语词典. – 北京: 商务印书馆, 2002 年. – 页 545.

⁴⁵ Ko‘rsatilgan manba. – b.233.

⁴⁶ Ko‘rsatilgan manba. – b.133.

5. 标致⁴⁷[biāozhì] – “PEUGEOT” markasining o‘zlashmasi.
6. 别克⁴⁸[biékè] – “BUICK” markasining o‘zlashmasi.
7. 布嘉迪⁴⁹[bùjiādí] – “BUGATTI” markasining o‘zlashmasi.
8. 法拉利⁵⁰[fālālì] – “FERRARI” markasining o‘zlashmasi.
9. 菲亚特⁵¹[fēiyàtè] – “FIAT” markasining o‘zlashmasi.
10. 福特⁵²[fútè] – “FORD” markasining o‘zlashmasi.
11. 坦克⁵³[tǎnkè] – tank. Bunda 坦克 iyerogliflari ma’no jihatdan emas, balki talaffuzi “tank” so‘ziga yaqin bo‘lganligi uchun tanlab olingan.
12. 吉普车⁵⁴[jípūchē] – Jip turidagi avtomashina. Inglizcha “JEEP” so‘zining o‘zlashmasi.
13. 皮卡⁵⁵[píkǎ] – Pikap rusumidagi avtomashina. Ushbu transport vositasiga oid bo‘lgan atama ingliz tildagi “pick up” so‘zining xitoy tiliga talaffuzi o‘zlashishidir.

14. 奥兹莫比汽车 [ào zī mò bǐ] “Oldsmobile” kompaniyasining markasi

Mazkur bobdan xulosalar chiqarar ekanmiz, Xitoyda avtomobilsozlik sanoatining hozirgi kunda juda rivojlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Xitoyda 1931 yildayoq avtomobil ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Rasmiy ravishda Xitoyda avtomobilsozlik sanoatining tug‘ilgan kuni 1956 yil 15 iyun hisoblanadi. Xitoyda ochilgan ilk avtomobilsozlik zavodi Changchun shahridagi FAW (First Automobile Works – Birinchi avtomobil zavodi) zavodidir. 2006 yilgima’lumotgabinoanmamlakat hududida 6322 ta avtomobilsozlik korxonalari mavjud bo‘lgan.

⁴⁷Ko‘rsatilgan manba. – b.157.

⁴⁸ Ko‘rsatilgan manba. – b.245.

⁴⁹ Ko‘rsatilgan manba. – b.243.

⁵⁰Ko‘rsatilgan manba. – b.245.

⁵¹ Ko‘rsatilgan manba. – b.177.

⁵² Ko‘rsatilgan manba. – b.179.

⁵³ Ko‘rsatilgan manba. – b.240.

⁵⁴ Ko‘rsatilgan manba. – b.234.

⁵⁵Ko‘rsatilgan manba. – b.179.

Xitoy tilida avtomobilsozlikka oid o'zlashgan so'zlarni tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, semantic jihatdan o'zlashgan so'zlar, avtomobil atamalari fonetik jihatdan o'zlashgan atamalarga nisbatan ancha qismni tashkil qiladi. Bundan tashqari, fonetik jihatdan o'zlashgan avtomobilsozlikka oid so'zlar asosan, avtomobil markalari ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Avtomobil turlari va mayda qismlari, elementlari semantic kalkalash natijasida yuzaga kelgandir.

II BOB. AVTOMOBILSOZLIK ATAMALARINING YASALISH USULLARI

Soʻz yasalishi 构词法 [gòucífǎ] – leksikologiyaning soʻz yasalishi usullari, tilda mavjud boʻlgan soʻz yasash tizimini oʻrganuvchi boʻlimdir.

Zamonaviy xitoy tilida soʻz yasashning soʻz qoʻshilish usuli, affiksatsiya (yarim affiksasiya), oʻzlashtirish usullaridan tashqari reduplikasiya, transpozisiya, kontraksiya kabi koʻplab usullari bor.

Soʻz qoʻshish- ikki mustaqil soʻzning oʻzaro qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻzdir. Masalan, 电灯 -elektron chiroq. Ushbu soʻzdagi 电 va 灯 soʻzlari mustaqil morfemalardir.

Affiksatsiya yani soʻzga qoʻshimchalar qoʻshish orqali soʻz hosil qilish. Bunda affikslar hech qanday umumiy maʼno anglatmaydi. Ushbu qoʻshimchalar oʻrni soʻz boshi, soʻz oxiri yoki soʻz oʻrtasi boʻlishi mumkin.

Quyida biz xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasashini oʻrganib chiqamiz.

2.1. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining

affiksatsiya yoʻli orqali yasalishi

Avtomobilsozlik atamaları orasida yasama soʻzlarning miqdori qoʻshma soʻzlarning sonidan ancha kam boʻlsada, biroq ular mavjud boʻlib alohida oʻrganishga loyiqdir. Yasama soʻzlar odatda suffiksatsiya usuli bilan vujudga keladi. Xitoy tili soʻz yasashida kompozitsiya usulidan keyin eng keng qoʻllaniladigan usul bu - affiksatsiya usulidir.

Affiksatsiya usuli nima? Affiksatsiya (加词缀 jiācízhù) soʻz yasashining oʻzakka affiks qoʻshilishi bilan yasaluvchi usuldir.

Shuningdek affiksatsiya usuliga Frolova O.P quyidagicha taʼrif beradi: “Affiksatsiya – zamonaviy xitoy tili soʻz yasashida eng koʻp qoʻllaniladigan

usullardan biridir. Affiks (词缀 cízhùi) – o‘zak morfemaga qo‘shiluvchi shakliy morfema”⁵⁶.

Xitoy tili so‘z yasashida kompozitsiya usulidan keyin affiksatsiya ikkinchi o‘rinni egallaydi. Tilshunoslikda affiksatsiya va yarim affiksatsiya ikkita mustaqil so‘z yasash usuli sifatida qaraladi. Asosiy farqi shundaki, yangi so‘z hosil qilganda birinchi usulda o‘zakka so‘z yasovchi affiksni qo‘shilishi, ikkinchi usulda yarim affiks qo‘shiladi.

Affikslash usuli so‘z yasashining morfologik usuliga kiradi, yarim affikslar usuli esa leskik-morfologik yo‘l bilan yasashga kiradi. Affikslar so‘zdan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi, ular negizga qo‘shilib, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish maqsadida qo‘llanadi.

Demak, affiksatsiya usulida so‘zlar o‘zak morfemaga affikslar qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Affiks o‘zi nima? “Affikslar – grammatik ma’noga ega morfemalardir. Affikslar mustaqil ma’no anglatmay, ular so‘zlardan tashqarida tilda mavjud bo‘lmaydi va affikslar so‘z va shakl yasash uchun xizmat qiladi”. So‘z yasashi deganda bir leksik birlikdan butunlay yangi ma’noli so‘z yasashi tushunilsa, shakl yasash deganda aynan o‘sha so‘zning qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida shakl jihatdan o‘zgarishi nazarda tutiladi. Lekin, xitoy tilida shakl yasovchi qo‘shimchalar nihoyatda kam kuzatiladi.

Hozirgi zamon xitoy tilidagi so‘z yasovchi affikslarning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlardan yuzaga kelgan, lekin bu yo‘lni to‘la o‘tib ulgurmagan birliklar ham bor. Hozirgi xitoy tilida mustaqillikdan affiks morfemaga to‘la o‘tish yo‘lini bosib o‘tmagan juda ko‘p morfema mavjud bo‘lib, ular affiks va mustaqil so‘z yasovchi morfema orasidagi oraliq o‘rinni egallab turadi va yarim affikslar deb ataladi.

Struktur jihatdan, ya’ni affiksning so‘zdagi pozitsiyasiga ko‘ra xarakterini belgilaydi: prepozitsiyada – prefiks, postpozitsiyada – suffiks. Agar ikki bo‘g‘inli so‘zda birinchi morfema prefiks bo‘lsa, ikkinchi morfema suffiks bo‘lishi mumkin

⁵⁶О.П.Фролова.Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. Н.,1982г. 35 стр.

emas; va aksincha, agar ikkinchi morfema suffiks bo'lsa, birinchisi prefiks bo'lishi mumkin emas.

Xitoy va rus tilshunoslari hozirgi xitoy tilidagi affiks va yarim affikslarning sonini turlicha ajratishadi. Faqat ular bir fikrda: prefiks va yarim prefikslar miqdorining suffiks va yarim suffikslardan ancha kamligi masalasida bir yoqadan bosh chiqaradilar.

Avtomobilsozlik atamalarining yasalişida, umuman, texnik atamalarni yasashda 器[qì] morfemasi juda samaradorligi bilan ajralib turadi. Quyida 器[qì] morfemasining affiks (asosan suffiks) vazifasida kelishiga misollar keltiramiz.

1. 点 火 器 [diǎnhuǒqì] – o't oldirgich; 点[diǎn] so'zining juda ko'p ma'nolari bo'lib, mazkur so'zda "yoqmoq" ma'nosida kelmoqda (fe'l) + 火[huǒ] – "o't", "olov" (ot) + 器[qì] ushbu so'zning asl ma'nosi "qurilma", "apparat". 器[qì] so'z oxiriga qo'shilib, yangi so'z hosil qilishda ishtirok etmoqda. Ushbu iyeroglifni hech qaysi adabiyotlarda affiks ekanligi qayd etilmagan, biroq affiksatsiya qonuniyatlariga binoan uni hozirgi holatda so'z yasovchi morfema deb hisoblashimiz mumkin. Ushbu so'zimizni esa affiksatsiya yo'li bilan yasalgan yasama so'z deb hisoblasak bo'ladi.

2. 刮 雨 器 [guāyǔqì] – oynatozalagich. Bunda 刮[guā] – esmoq (shamolga nisbatan) (fe'l) va 雨[yǔ] – yomg'ir (ot) ma'nolarini anglatadi. 器[qì] so'z oxiriga qo'shilib, yangi so'z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

3. 离 合 器 [líhéqì] – ulash tepkisi. Bunda 离[lí] – ajratish (fe'l), 合[hé] – birlashtirish (fe'l), 器[qì] – qurilma, aparat. 器[qì] so'z oxiriga qo'shilib, yangi so'z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

4. 化 油 器 [huàyóuqì] – karbyurator. Bunda 化[huà] – aylanmoq, o'zgarmoq, yangilanmoq (fe'l); 油[yóu] – yog', yoqilg'i (ot) ma'nolarini anglatadi. 器[qì] – qurilma, aparat bo'lib, so'z oxiriga qo'shilib, yangi so'z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

5. 挡风玻璃清洗器[dǎngfēng bōlí qīngxǐqì] – old oynani yuvgich. 挡[dǎng] – to‘smoq (fe’l); 风[fēng] – shamol (ot); 玻璃[bōlí] – oyna, shisha (ot); 清[qīng] – toza, yorug‘, pok (sifat); 洗[xǐ] – yuvmoq, chaymoq (fe’l); 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda. Mazkur so‘zning birinchi qismi so‘z qo‘shish usuli yordamida yasalgan, ya’ni 挡风[dǎngfēng] – shamolni to‘smoq, 玻璃[bōlí] – oyna, shisha, 清洗[qīngxǐ] – tozalamoq so‘zlarining o‘zaro qo‘shilishi va unga 器[qì] suffiksining qo‘shilishi natijasida yuqoridagi yasama so‘z hosil bo‘lgan.

6. 分配器[fēnpèiqì] – taqsimlagich, splitter. Bunda 分[fēn] – bo‘lmoq, ajratmoq (fe’l); 配[pèi] – uyg‘unlashmoq, mos tushmoq (fe’l) ma’nolarini anglatadi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

7. 配电器[pèidiànrì] – o‘t oldirishni taqsimlagich. Bunda 配[pèi] – uyg‘unlashmoq, mos tushmoq (fe’l); 电[diàn] – elektr, tok (ot) ma’nolarini bildiradi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

8. 滤油器[lǜyóuqì] – yoqilg‘i filtri. 滤[lǜ] – filtrlamoq, suzgichdan o‘tkazmoq (fe’l); 油[yóu] – yog‘, yoqilg‘i (ot) ma’nolarini anglatadi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

9. 避震器[bìzhènqì] – amortizator. Bunda 避[bì] – oldini olmoq, bartaraf qilmoq (fe’l); 震[zhèn] – tebranmoq, silkinmoq, liqillamoq (fe’l) kabi ma’nolarni anglatadi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

10. 消音器[xiāoyīnqì] – glushitel (ovozni, shovqinni pasaytiradigan asbob, moslama). Bunda 消[xiāo] – yo‘qotmoq, barham bermoq, bartaraf qilmoq (fe’l); 音[yīn] – tovush, shovqin (ot) ma’nolarini bildiradi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

11. 散热器[sànrèqì] – radiator. Bunda 散[sàn] – tarqatmoq (fe’l), 热[rè] – issiq, issiqlik (ot) ma’nolarini anglatadi. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

12. 差速器[chāsùqì] – differensial (avtomobil orqa g‘ildiraklariga turlicha aylanish beradigan mexanizm). Bunda 差[chā] – farq qilmoq, o‘zgartirmoq; 速[sù] – tezlik. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

13. 刮水器 guāshuǐqì – oynatozalagich. Bunda 刮[guā] – esmoq, purkamoq, sepmoq; 水[shuǐ] – suv. 器[qì] – qurilma, apparat bo‘lib, so‘z oxiriga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilishda ishtirok etmoqda.

Endi esa 表[biǎo] *ifodalamoq; jadval* morfemasi bilan yasalgan yasama so‘zlarni ko‘rib chiqamiz:

14. 里程表[lǐchéngbiǎo] – kilometr hisoblagich. Bunda 里程[lǐchéng] – bosib o‘tgan yo‘l (ot); 里[lǐ] – li (uzunlik o‘lchovi, 1 li = 0.5 km); ichki (ot/sifat); 程 chéng – masofa, yo‘l (ot) ma’nolarini anglatadi. Bu so‘zda 表[biǎo] so‘z yasovchi affiks bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu so‘zni affiksatsiya yo‘li bilan yasalgan yasama so‘z deb hisoblasak bo‘ladi.

15. 机油表[jīyóubiǎo] – yoqilg‘i xarajati ko‘rsatkichi. Bunda 机[jī] – mashina, mexanizm, qurilma (ot); 油[yóu] – yog‘, yoqilg‘i (ot) ma’nolarini anglatadi. Bu so‘zda 表[biǎo] so‘z yasovchi affiks bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu so‘zni affiksatsiya yo‘li bilan yasalgan yasama so‘z deb hisoblasak bo‘ladi.

16. 速度表 [sùdùbiǎo] – spidometr. Bunda 速度 [sùdù] – tezlik (ot) ma'nosini bildiradi. Bu so'zda 表 [biǎo] so'z yasovchi affiks bo'lib xizmat qilmoqda. Bu so'zni affiksatsiya yo'li bilan yasalgan yasama so'z deb hisoblasak bo'ladi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, xitoy tilidagi avtomobilsozlikatamalarining yasashida yarim affikslar alohida ahamiyatga egadir Bunda 器 va 表 yarim affikslarini ishtirok etgan atamalarni ko'rib chiqdik.

2.2. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining

kompozitsiya usuli orqali yasalishi

Tilshunoslikda so'z qo'shilishi deganda ikki yoki undan ortiq so'z yoki negiz qo'shilishi natijasida yangi so'z hosil bo'lishi tushuniladi. So'z qo'shilishida asosiy so'z hosil qiluvchi vosita bu so'z yoki morfemalarning qo'shilishidir. Xitoy tilida kompozitsiya usuli yangi so'zlar hosil qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Bizga ma'lumki, so'z qo'shish kompozitsiyadan oldin mavjud bo'lgan. V.M.Solnsevning yozishicha "So'z qo'shish tabiiy holda sodir bo'ladi, ya'ni tez-tez birga qo'llaniladigan so'zlar birikib, bitta yangi so'z hosil bo'ladi. Kompozitsiya usuli esa aniq model bo'yicha hosil bo'ladi. Ikki yoki uchta negizlar olinib, xitoy tilidagi kompozitsiya usuli qoidalariga ko'ra qo'shiladi⁵⁷".

Kompozitsiya usuli – so'z yasashning eng qadimgi va mahsuldor usulidir. Ma'lumki, hozirgi xitoy tilidagi murakkab so'zlar boshqa tillarga nisbatan ancha ko'p, chunki xitoy tilidagi so'zlarning aksariyat Lekin qadimgi va o'rta davr xitoy tilida murakkab so'zlar reduplikasiya hodisasi orqali hosil bo'ladi. Hozirgi xitoy tilida esa bu usul katta rol o'ynamaydi.⁵⁸

⁵⁷ В.М.Солнцев «Очерки по современному китайскому языку. М., 1957г. 204 б

⁵⁸ Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного языка. Новосибирск, Наука. 1981. С-70

Kompozitsiya usuli deganda umumiy tilshunoslikda bir soʻzdan bir necha (ikki va undan ortiq) soʻz yoki negizlarning birlashuvi natijasida yangi soʻzlarning hosil boʻlishi tushiniladi. “Kompozitsiya (lot.) – Soʻz qoʻshish. Qoʻshma soʻzlar. Qoʻshma soʻz tarkibida birdan ortiq lugʻaviy maʼnoli qism boʻlgan soʻz”⁵⁹. Kompozitsiya yangi soʻzlar hosil qilishda qoʻllaniladigan asosiy usullardan biri hisoblanadi⁶⁰. Xitoy tilshunoslari ushbu usulni sintaktik usul, deb taʼriflab, eng unumdor usullar qatoriga kiritishgan⁶¹.

V.M.Gorelovning fikriga koʻra kompozitsiya usuli bilan hosil boʻlgan xitoy tilidagi soʻzlar “komponentlarning ajralishi, ichki formaning aniqligi yoki maʼnaviy tuzilishi bilan xarakterlidir. Murakkab soʻzning maʼnosi uni tashkil etgan morfemalarning maʼnosidan kelib chiqadi. Murakkab soʻzlarning maʼnosi ularni tashkil etayotgan qismlari maʼnosiga bogʻliq”⁶².

Kompozitsiya usulida yasalgan soʻz “murakkab soʻz” (词的复合 [cíde fùhé] – kompozitsiya) yaʼni, 复合词 [fùhécí] deb nomlanadi. Baʼzan qoʻshma soʻz “kompozit” atamai bilan yuritiladi.

Murakkab soʻz komponentlari mustaqil leksik maʼnoga ega boʻlib, zamonaviy xitoy tilida mustaqil ravishda qoʻllanilishi mumkin. Lekin qoʻshma soʻzlar tarkibida oʻzbek morfema boʻlsada, zamonaviy xitoy tilida alohida qoʻllanilmaydi. Kompozitsiya soʻz yasash usuli sifatida bir komponentning boshqasiga oddiy birikib kelishi taʼsirida yuzaga keladi.

Soʻz qoʻshish usuli bilan yasalgan atamalar eng koʻp sonli atamalar hisoblanadi. Buni barcha atamashunoslar tan olishadi. Komponentlar orasidagi bogʻlanishlar turli xil boʻlishiga qaramay, ular bir maʼnolik va tizimlilik sifatini saqlab qoladi.

⁵⁹ Хожиев А. Терминшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002. – 51, 143 б

⁶⁰ Хаматова А. А. Словообразование современного китайского языка. – М.: «Муравей», 2003. – С. 81.

⁶¹ 黎锦熙刘世儒. 汉语语法教材, II. - 北京, 1952.-56 б.

⁶² Горелов В.И. Лексикология современного китайского языка. – М., 1984. С-216

Soʻz qoʻshish usuli soʻzlarning turkumlariga koʻra besh turga boʻlinadi.

1) Soʻz qoʻshish usulining atributiv (ergashtiruvchi) modeli

Atributiv modelining oʻziga xosligi shundan iboratki, bunday soʻz komponentlaridan biri odatda, birinchisi, boshqa komponentni aniqlaydi. Mazkur model boʻyicha yasalgan soʻzlarda komponentlarning biri (asosiysi) aniqlanuvchi va (ikkinchi darajali) aniqlovchi boʻlib hisoblanadi. Bu komponentlar orasidagi munosabat atributiv, aniqlovchi yaʼni ergashtiruvchidir.⁶³ Masalan:

1. 尾灯 [wěidēng] – orqa chiroqlar. Soʻz atributiv ergashtiruvchi model boʻyicha ikki asosdan hosil boʻlgan. 灯 [dēng] – lampa, fonus (ot) – soʻzning asosiy qismi, 尾[wěi] – dum, dum tomon (ot) – soʻzning ikkinchi darajali qismi.

2. 车窗[chēchuāng]– avtomobil oynasi. Soʻz atributiv ergashtiruvchi model boʻyicha ikki asosdan hosil boʻlgan. 窗[chuāng] – oyna, vitrina, tuynuk (ot) – soʻzning asosiy qismi, 车[chē] – mashina, arava (ot) – soʻzning ikkinchi darajali qismi.

3. 安全帶[ānquándài] – xavfsizlik kamari. Soʻz atributiv ergashtiruvchi model boʻyicha ikki asosdan hosil boʻlgan. Bunda 帶[dài] – kamar (ot) – soʻzning asosiy qismi, 安全[ānquán] – xavfsizlik (ot) – soʻzning ikkinchi darajali qismi.

2) Soʻz qoʻshish usulining bogʻlovchi (kopulyativ) modeli.

Ushbu model boʻyicha yasalgan soʻz komponentlari teng munosabatda bogʻlanadi. A.Semenasning yozishicha, “kopulyativ qoʻshish deganda, funksional–sintaksik va semantik teng bogʻlangan morfemalarning qoʻshilishi tushunilib, ularning yigʻindisi yaxlit maʼnoni anglatadi.⁶⁴ Masalan:

⁶³ Семенов А.Л. Лексика китайского языка.– М.: Муравей, 2000. – с.312.

⁶⁴ Семенов А.Л. Лексика китайского языка.– М.: Муравей, 2000. – с.300.

4. 方向盘[fāngxiàngpán] – avtomobil ruli, boshqaruv chambaragi. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining kopulyativ modeli boʻlib, ikki asosdan yasalgan. Bunda 方向[fāngxiàng] – yoʻnalish (ot) va 盘[pán] – chambarak, likopcha (ot).

5. 头灯[tóudēng]– old chiroqlar. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining kopulyativ modeli boʻlib, ikki asosdan yasalgan. Bunda 头[tóu]– bosh (ot) va 灯[dēng] – chiroq, fonus (ot).

6. 引擎罩 [yǐnqíngzhào]– kapot. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining kopulyativ modeli boʻlib, ikki asosdan yasalgan. Bunda 引擎[yǐnqíng] – motor, dvigatel (ot) va 罩[zhào]– qopqoq, qoplama (ot).

7. 风扇[fēngshàn] - ventilyator. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining kopulyativ modeli boʻlib, ikki asosdan yasalgan. Bunda 风[fēng] – shamol (ot) + 扇[shàn] – sirgʻanmoq (feʼl).

8. 油门[yóumén] – akselerator, tezlatgich. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining kopulyativ modeli boʻlib, ikki asosdan yasalgan. Bunda 油[yóu] – yogʻ, yoqilgʻi (ot) va 门[mén] – eshik (ot).

3) Soʻz qoʻshish usulining subyektli–predikativ modeli.

Bu modelda birinchi negiz (predmetli) subyekt rolini bajaradi va soʻz hosil qilgan holda, ikkinchi (odatda feʼlli yoki sifatli) negiz bilan subyektli–predikativ munosabatga kirishadi.⁶⁵ Tuzilishi jihatdan bu model oddiy gap sxemasiga mos kelib, bu holat mazkur modelning nomida oʻz aksini topgan.

9. 油量表[yóuliángjì] – yoqilgʻi sathi koʻrsatkichi. Ushbu atama soʻz qoʻshish usulining subyektli predikativ modeli boʻyicha yasalgan. U ikki asosdan iborat.油量[yóuliáng] – yoqilgʻi sathi, miqdori (ot) va 计[jì] – oʻlchamoq (feʼl).

4) Soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli.

⁶⁵ Xashimova S. Xitoy tilida soʻz yasalishi. – Toshkent, 2012. – 153 b.

Bu model soʻz qoʻshish mexanizmi shundan iboratki, birinchi feʼlli negiz ikkinchi otli negiz bilan feʼl–obyektli munosabatga kirishadi, boshqacha qilib aytganda feʼlli negiz otli negizni “boshqaradi”.⁶⁶

10. 点火钥匙[diǎnhuǒ yàoshi] – oʻt oldirish kaliti. Mazkur atamaimiz soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli orqali yasalgan boʻlib, u ikki asosdan hosil boʻlgan. Bunda 点火[diǎnhuǒ] – oʻt oldirmoq (feʼl) va 钥匙[yàoshi] – kalit (ot).

11. 转向灯[zhuǎnxiàngdēng] – burilish chiroqlari. Mazkur atamaimiz soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli orqali yasalgan boʻlib, u ikki asosdan hosil boʻlgan. Bunda 转[zhuǎn] – oʻzgartirmoq, almashtirmoq (feʼl) va 灯[dēng] – chiroq (ot) maʼnolarini anglatadi.

12. 倒车灯[dǎochēdēng] - orqaga harakatlanish farasi. Mazkur atamaimiz soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli orqali yasalgan boʻlib, u uch asosdan hosil boʻlgan. Bunda 倒[dǎo] – orqaga harakatlanmoq (feʼl) + 车[chē] – avtomobilsozlik (ot) + 灯[dēng] – chiroq (ot).

13. 凸轮轴[tūlúnzhóu] – taqsimlovchi oʻq. Mazkur atamaimiz soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli orqali yasalgan boʻlib, u uch asosdan hosil boʻlgan. Bunda 凸[tū] – chiqmoq, koʻtarilmoq (feʼl) + 轮[lún] – gʻildirak (ot) + 轴[zhóu] – val, oʻq (ot).

14. 保险杠[bǎoxiǎngàng] – bamper. Mazkur atamaimiz soʻz qoʻshish usulining feʼl obyektli modeli orqali yasalgan boʻlib, u ikki asosdan hosil boʻlgan. Bunda 保险[bǎoxiǎn] – saqlamoq, asramoq (feʼl) va 杠[gāng] – xoda, sterjen (ot).

5) Soʻz qoʻshish usulining feʼl – toʻldiruvchili modeli.

Ushbu model boʻyicha soʻzlarni yasash mexanizmi quyidagidan iborat: markaziy, mustaqil (feʼl yoki predikativ) negizga oʻzgartirish yoki natija maʼnosi bilan toʻldiruvchi element qoʻshiladi⁶⁷.

⁶⁶ Xashimova S. Xitoy tilida soʻz yasalishi. – Toshkent. 2012. – 163 b.

Ushbu model bo'yicha turli so'z turkumlari yasalishi mumkin, aksariyat hollarda fe'llar yasaladi. Quyida avtomobilsozlik atamalarining so'z qo'shish usulining fe'l-to'ldiruvchi modeli orqali yasalgan so'zlardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz:

15. 启动马达[qǐdòng mǎdá] – starter (dvigatellarni yurgizib beruvchi – o't oldiruvchi mexanizm). Ushbu atama so'z qo'shish usulining fe'l to'ldiruvchi modeli orqali yasalgan bo'lib, u ikki asosdan iborat. Bunda 启动[qǐdòng] – o't oldirmoq (fe'l) va 马达[mǎdá] – motor, dvigatel (ot).

16. 踏板[tàbǎn] – tormoz tepkisi. Ushbu atama so'z qo'shish usulining fe'l to'ldiruvchi modeli orqali yasalgan bo'lib, u ikki asosdan iborat. Bu yerda 踏[tà] – tepmoq, bosmoq; 板[bǎn] – taxta, doska ma'nolarini bildiradi.

17. 减震器[jiǎnzhènqì] – amortizator. Ushbu atama so'z qo'shish usulining fe'l to'ldiruvchi modeli orqali yasalgan bo'lib, u ikki asosdan va so'z yasovchi suffiksdan iborat. Bunda: 减[jiǎn] – kamaytirmoq (fe'l) + 震[zhèn] – qimirlamoq, siltamoq (fe'l) + 器[qì] – qurilma yasaydigan suffiks.

⁶⁷ Xashimova S. Xitoy tilida so'z yasalishi. – Toshkent. 2012. – 172 b.

III BOB. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining struktur va miqdoriy tahlili

3.1 Xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarining struktur tahlili

Mazkur bobda avtomobilsozlik atamalarining structural tahlilini amalga oshirdik. Bunda o'rganish uchun yig'ilgan atamalarining har birining tarkibidagi morfemalar soni, ularning qaysi so'z turkumiga oid ekanligi tahlil qilindi. Ushbu bo'limda biz o'rganib chiqqan avtomobilsozlikka oid bo'lgan atamalarining struktur jihatdan ikki morfemali, uch morfemali, to'rt va undan ortiq morfemali atamalar guruhlariga ajratib chiqamiz hamda ushbu guruhlariga tegishli bo'lgan atamalarni miqdor jihatdan bo'lib chiqamiz.

So'z turkumlarini shartli belgilar bilan ifodalash kelishib olindi: ot – O, sifat – S, fe'l – F, R – ravish, affiks - A va hokazo.

Ikki morfemali atamalar:

1. 座椅[zuòyǐ] – o'rindiqlik. 座 – o'tirmoq, fe'l so'z turkumiga oid, 椅 – stul, ot so'z turkumiga xos. Fe'l va ot so'z turkumiga kiruvchi ikkita so'z qo'shilib, ot so'z turkumiga xos so'z hosil bo'lmoqda. $F+O=O$
2. 轴距[zhóujù] – g'ildiraklar orasidagi masofa. 轴 – val, ot so'z turkumiga oid, 距 – masofa, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. $O+O=O$
3. 车厢[chēxiāng] – kuzov. 车 – mashina, arava, ot so'z turkumiga oid. 厢 – vagon, kuzov, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. $O+O=O$
4. 轮胎[lúntāi] – shina (g'ildirakka kiydirilgan temir yoki rezina chambar). 轮 – g'ildirak, disk, ot so'z turkumiga xos. 胎 – avtoshina, shina, kamera, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. $O+O=O$
5. 后轮[hòu lún] – orqa g'ildirak. 后 – orqa, orqa tomon, ravish so'z turkumiga xos, 轮 – g'ildirak, disk, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. $R+O=O$

6. 转盘[**zhuǎnpán**] – rotor. 转– aylanmoq, fe'l so'z turkumiga oid, 盘–tarelka, disk, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. F+O=O
7. 履带[**lǚdài**] – gusenitsa (tank, traktor va shu kabilarda g'ildirak vazifasini o'tovchi keng zanjir tasma). 履–o'tmoq, kechib o'tmoq, fe'l so'z turkumiga oid, 带 – tasma, kamar, ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. F+O=O
8. 链轨[**liànguǐ**] – gusenitsa (tank, traktor va shu kabilarda g'ildirak vazifasini o'tovchi keng zanjir tasma). 链– zanjir, ot so'z turkumiga oid, 轨–temir yo'l izi, g'ildirak izi, ot so'z tukumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O
9. 苫布[**shānbù**] – brezent. 苫– yopmoq, tomni yopmoq, qoplamoq, fe'l so'z turkumiga oid, 布–mato, gazlama, ot so'z tukumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. F+O=O
10. 底盘[**dǐpán**] – shassi (turli mashina mexanizmlarining asosiy ramasi). 底– pastdagi, pastki qism, ravish so'z turkumiga oid, 盘–tarelka, disk, ot so'z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan.
11. 车门[**chēmén**] – avtomobil eshigi. 车–mashina, arava, ulov, ot so'z turkumiga oid. 门– eshik, darvoza, ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O
12. 门把[**ménbà**]– eshik tutqichi. 门– eshik, darvoza, ot so'z turkumiga oid, 把– tutqich, ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O
13. 门锁[**ménsuǒ**] – eshik qulfi. 门– eshik, darvoza, ot so'z turkumiga oid, 锁– qulf, ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O
14. 水箱[**shuǐxiāng**] – radiator. 水– suv, suyuqlik, ot so'z turkumiga xos, 箱– yashik, chemodan, ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O
15. 轮毂[**lúngǔ**] – g'ildirak diski. 轮– g'ildirak, ot so'z turkumiga mansub, 毂– vtulka, ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

16.大灯[dà dēng] – avtomobil farasi. 大– katta, yirik, sifat so‘z turkumiga mansub, 灯– chiroq, fara, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. S+O=O

17.轮辋[lúnwǎng] – g‘ildirak to‘gini (tegarchigi). 轮 - g‘ildirak, ot so‘z turkumiga mansub, 辋– shina, to‘gin, tegarchik, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

18.尾灯[wěidēng] – orqa chiroqlar. 尾– dum, ot so‘z turkumiga mansub, 灯– chiroq, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

19.车窗[chēchuāng] – avtomobil oynasi. 车– mashina, arava, ulov, ot so‘z turkumiga mansub, 窗– deraza, oyna, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

20.头灯[tóudēng]– old chiroqlar. 头– bosh, bosh qismi, ot so‘z turkumiga mansub, 灯– chiroq, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

21.风扇[fēngshàn] – ventilyator. 风– shamol, ot so‘z turkumiga mansub, 扇– yelpig‘ich, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

22.油门[yóumén] – akselerator, tezlatgich. 油– yog‘, yoqilg‘i, ot so‘z turkumiga mansub, 门– eshik, darvoza, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

23.踏板[tàbǎn] – tepki (pedal). 踏–bosmoq, tepmoq, fe‘l so‘z turkumiga mansub, 板–doska, plita, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. F+O=O

24.电瓶[diànpíng] – akkumulyator. 电–elektr, tok, ot so‘z turkumiga mansub, 瓶– idish, shisha, butilka, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

25.后桥[hòuqiáo] – orqa ko‘prik. 后– orqa, orqa tomon, ravish so‘z turkumiga mansub, 桥– ko‘prik, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. R+O=O

26.备胎[bèitāi] – zaxira g‘ildiragi. 备– tayyor turmoq, tayyor bo‘lmoq, fe‘l so‘z turkumiga mansub, 胎 – avtoshina, shina, kamera, ot so‘z turkumiga xos. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. F+O=O

27.车架[chējià] – avtomobil ramasi. 车– mashina, arava, ulov, ot so‘z turkumiga mansub, 架–javon, tokcha, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

28.车顶[chēdǐng] – mashina tomi. 车– mashina, arava, ulov, ot so‘z turkumiga mansub, 顶– tom, cho‘qqi, yuqori qism, ot so‘z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. O+O=O

Yuqorida ikki morfemali avtomobilsozlik atamalarini struktur jihatdan tahlil qilinganda hammasi bo‘lib 28 ta atama kelib chiqdi va bu xitoy tilida avtomobilsozlikka oid atamalarning 3 dan bir qismini tashkil qiladi.

Uch morfemali atamalar:

1. 发动机[fādòngjī] – motor, dvigatel. 发– boshlamoq, fe‘l so‘z turkumiga mansub, 动– harakatlanmoq, fe‘l so‘z turkumiga mansub, 机– moslama, qurilma, ot so‘z turkumiga mansub, bu yerda so‘z yasovchi yarim affiks vazifasini bajarmoqda. Affiksatsiya usuli asosida yasalgan. F+F+A=O

2.差速器[chāsùqì] – differensial (avtomobil orqa g‘ildiraklariga turlicha aylanish beradigan mexanizm). 差 – farq qilmoq, fe‘l so‘z turkumiga mansub, 速– tezlik, ot so‘z turkumiga mansub, 差速 – differensial, ot so‘z turkumiga mansub, 器 – qurilma, moslama, ot so‘z turkumiga mansub, bu yerda qurilma nomlarini yasovchi yarim affiks vazifasini bajarmoqda. Affiksatsiya usuli asosida yasalgan. F+O+A=O

3.钢丝绳[gāngsīshéng] – po‘lat tros, po‘lat simlardan ishlangan arqon. 钢– po‘lat, ot so‘z turkumiga mansub, bu yerda sifat vazifasini bajarmoqda, 丝– sim, yupqa

sim, ot soʻz turkumiga mansub, 绳 – arqon, tros, ot soʻz turkumiga mansub.

Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. S+O+O=O

4.双车轮[shuāng chēlún] – qoʻsh gʻildirak. 双–juft, ikkita, hisob soʻz turkumiga mansub, 车 轮 – gʻildirak, mashina gʻildiragi, ot soʻz turkumiga mansub.

Kompozitsiya usulida yasalgan. H+O=O

5.备用胎[bèiyòng tāi] – zaxira shinasi. 备– tayyorlamoq, tayyor boʻlmoq, feʻl soʻz turkumiga mansub, 用– ishlatmoq, foydalanmoq, feʻl soʻz turkumiga mansub, 胎– gʻildirak, ot soʻz turkumiga mansub. Kompozitsiya usulida yasalgan. F+F+O=O

6.支承轮[zhīchéng lún] – tayanch gʻildirak. 支 - ushlab turmoq, koʻtarmoq, yordam bermoq~feʻl soʻz turkumiga mansub; 承 - tirab qoʻymoq, tirgak qoʻymoq~feʻl soʻz turkumiga mansub; 轮-gʻildirak~ot soʻz turkumiga mansub. Kompozitsiya usulida yasalgan: F+F+O=O;

7. 驾驶室[jiàshǐshì] – haydovchi boʻlmasi. 驾驶-haydamoq, boshqarish~ham feʻl ham ot boʻlib kelishi mumkin. Biz bu yerda ot soʻz turkumiga oid soʻz deb qabul qilamiz; 室-xona, maʼlum bir joyning alohida boʻlimlarini koʻrsatishda, yasashda qoʻllaniladigan qoʻshimcha. Affiksatsiya usulida yasalgan: O+A=O

8. 牵引架[qiānyǐnjià] – tortish ramasi. 牵引 - tortmoq, sudramoq~ feʻl soʻz turkumiga mansub; 架-rama, javon, qavat~ot soʻz turkumiga oid, lekin asosan soʻz yasashda qoʻllaniladigan qoʻshimcha (masalan 书架 –kitob javoni). Affiksatsiya usuli orqali yasalgan: F+A=O

9. 散热器[sànrèqì] – radiator. 散-yoyilib ketmoq, sachrab ketmoq, tarqatmoq~ feʻl soʻz turkumiga mansub; 热-issiq~ sifat soʻz turkumiga mansub; 器-texnika, apparat~ soʻz yasovchi qoʻshimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan: F+S+A=O

10. 水箱盖[shuǐxiāng gài]– radiator qopqogʻi. 水- suv~ ot soʻz turkumiga mansub; 箱 - bak, quti, yashik ~ ot soʻz turkumi; 盖 -qopqoq ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan: O+O+O=O

11. 水箱罩[shuǐxiāng zhào] - radiatorning himoya qalqoni. 水- suv~ ot soʻz turkumiga oid soʻz; 箱-yashik, quti~ ot soʻz turkumiga mansub; 罩- qopqoq, ustki

qoplama, yopmoq, qoplamog ~ ham ot ham fe'l so'z turkumidagi so'z. Bu yerda biz ot so'z turkumi deb olishimiz maqsadga muvofiq. Kompositsiya usuli orqali yasalgan: O+O+O=O

12. 保险杠[bǎoxiǎngàng] – bamper. 保险 - himoya qilmoq, asramoq, oldini olmoq~ fe'l so'z turkumiga mansub; 杠 - xoda, uzun tayoq ~ ot so'z turkumiga oid so'z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan: F+O=O;

13. 轮毂罩[lúngǔ zhào] – g'ildirak qopqog'i. 轮毂 -g'ildirak, disk~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 罩 - qoplama, qopqog~ ot so'z turkumiga oid so'z. kompositsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;

14. 后车窗[hòu chēchuāng] – orqa oyna. 后-orqa `ravish so'z turkumiga mansub; 车-avtomobil~ ot so'z turkumiga oid so'z; 窗- deraza, oyna ~ ot so'z turkumi. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. R+O+O=O

15. 行李厢 xínglǐ xiāng/行李箱 xínglǐxiāng – yukxona. 行李-yuk ~ot so'z turkumiga oid so'z; 箱-yashik, quti ~ot so'z turkumida oid so'z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O

16. 避震器[bìzhènqì] – tebranish amortizatori. 避-yashirinmoq, o'zini olib qochmoq ~ fe'l so'z turkumidagi so'z; 震- tebranmoq, qimirlamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 器 - apparat, texnika ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A=O

17. 点火器[diǎnhuǒqì] – o't oldirgich. 点 -yoqmoq, qo'shmoq~ fe'l so'z turkumidagi so'z; 火- olov ~ ot so' turkumiga mansub; 器- apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O

18. 刮雨器[guāyǔqì] – oynatozalagich. 刮- esmoq, qirib tozalamoq, tarashlamoq~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 雨-yomg'ir ~ ot so'z turkumi; 器-apparat~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;

19. 离合器[líhéqì] – ulash tepkisi. 离合-birlahstirmoq, bog'lamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 器- apparat ~ so' z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+A=O;

- 20. 化油器 [huà yóu qì]** – karbyurator. 化 -aylanmoq, o'zgarmoq ` fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 油 - kerosin, neft, benzin ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 器 - apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;
- 21. 分配器 [fēn pèi qì]** – taqsimlagich, splitter. 分 -ajratmoq, bo'lmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 配 -moslamoq, tog'ri kelmoq ~ fe'l so'z turkumi; 器 - apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A=O;
- 22. 配电器 [pèi diàn qì]** – o't oldirishni taqsimlagich. 配 - moslashtirmoq, taqsimlamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 电 - elektr ~ot so'z turkumiga mansub; 器 -apparat ~so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;
- 23. 滤油器 [lǜ yóu qì]** – yoqilg'i filtri. 滤 - filtrlamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 油 - yoqilg'I, benzin ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 器 - apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;
- 24. 消音器 [xiāo yīn qì]** – glushitel (ovozni, shovqinni pasaytiradigan asbob, moslama). 消 - yo'q qilmoq, bartaraf etmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 音 - tovush, ovoz ~ ot so'z turkumiga oid; 器 - apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha. F+O+A=O;
- 25. 里程表 [lǐ chéng biǎo]** – kilometr hisoblagich. 里 - kilometr, metr (uzunlik o'lchov birligi) ~son so'z turkumi; 程 - yo'l, masofa, tartib ~ot so'z turkumiga mansub; 表 -jadval, ko'rsatkich ~ so'z yasovchi qo'shimcha. S+O+A=O;
- 26. 机油表 [jī yóu biǎo]** – yoqilg'i xarajati ko'rsatkichi. 机 - mashina, mexanizm ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 油 -yoqilg'I, benzin ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 表 - ko'rsatkich, jadval ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. O+O+A=O;
- 27. 速度表 [sù dù biǎo]** – spidometr. 速度 - tezlik ~ ot so'z turkumiga oid so'z, 表 - ko'rsatkich, jadval ~ so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. O+A=O;

- 28. 安全带[ānquándài]** – xavfsizlik kamari. 安全-xavfsiz, tinch-osoyishta- sifat soʻz turkumiga oid soʻz; 带- kamar, bogʻich- ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
- 29. 方向盘[fāngxiàngpán]** – avtomobil ruli, boshqaruv chambaragi. 方向- yoʻnalish ~ ravish soʻz turkumiga mansub soʻz; 盘-disk, chambarak~ ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. R+O=O;
- 30. 油量表[yóuliángǐ]** – yoqilgʻi sathi koʻrsatkichi. 油- yoqilgʻI, benzin~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 量-hajm ~ ot soʻz turkumiga oid soʻz; 计- hisoblagich ~ ot soʻz turkumiga oid. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. O+O+O=O;
- 31. 倒车灯[dǎochēdēng]** – orqaga harakatlanish farasi. 倒- oʻzgartirmoq, almashtirmoq ~ feʻl soʻz turkumiga mansub soʻz; 车-mashina, avtomobil ~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 灯- chiroq, fara ~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz. kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 32. 凸轮轴[tūlúnzhóu]** – taqsimlovchi oʻq. 凸- chiqmoq~ feʻl soʻz turkumiga oid soʻz; 轮-gʻildirak ~ ot soʻz turkumiga oid soʻz; 轴- oʻq ~ ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 33. 减震器[jiǎnzhènqì]**– amortizator. 减-qisqartirmoq, kamaytirmoq ~ feʻl soʻz turkumiga mansub soʻz; 震-tebranmoq, qimirlamoq ~ feʻl soʻz turkumiga oid soʻz; 器 -apparat ~ soʻz yasovchi qoʻshimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A=O;
- 34. 蓄电池[xùdiànchí]** – akkumulyator. 蓄-saqlamoq, toʻplamoq ~ feʻl soʻz turkumiga oid soʻz; 电- elektr~ ot soʻz turkumiga oid soʻz; 池-hovuz, havza ~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 35. 通风器[tōngfēngqì]** – ventilyator. 通-oʻtkazmoq ~ feʻl soʻz turkumiga oid soʻz, 风- shamol ~ ot soʻz turkumiga tegishli soʻz; 器 - apparat ~ soʻz yasovchi qoʻshimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;

- 36. 后视镜[hòushìjìng]** – orqa manzarani kuzatish ko‘zgusi. 后- orqa ~ ravish so‘z turkumi, 视- ko‘rmoq, qaramoq ~ fe‘l so‘z turkumi; 镜-oina, ko‘zgu ~ ot so‘z turkumiga oid so‘z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. R+F+O=O;
- 37. 变速杠[biànsù gāng]** – tezlikni o‘zgartirish dastagi. 变- o‘zgartirmoq ~ fe‘l so‘z turkumi; 速-tezlik ~ ot so‘z turkumi; 杠- xoda, uzun tayoq ~ ot so‘z turkumiga oid so‘z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 38. 传动轴[chuándòngzhóu]** – uzatish vali. 传-uzatmoq, olib bormoq ~ fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘z; 动-harakatlanmoq ~ fe‘l so‘z turkumi; 轴- o‘q ~ ot so‘z turkumi. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O=O;
- 39. 万向节[wànxiàngjiē]** – oshiq-moshiq. 万- o‘n ming~ son so‘z turkumiga oid so‘z; 向-tomon, yo‘nalish~ ravish so‘z turkumi; 节-bo‘lim, qism ~ ot so‘z turkumi. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. S+R+O=O;
- 40. 排气管[páiqìguǎn]** – chiqarish trubasi. 排- tartibga solmoq, qatorlamoq~ fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘z; 气- havo~ ot so‘z turkumiga oid; 管- truba ~ ot so‘z turkumiga oid so‘z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 41. 汽油箱[qìyóuxiāng]** – yoqilg‘i baki. 汽油-yoqilg‘i, ot so‘z turkumiga oid so‘z; 箱- yashik, quyi, idish ~ ot so‘z turkumiga oid so‘z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
- 42. 前围板[qiánwéibǎn]** – ayiruvchi panel (motor bo‘lmasi va mashina saloni o‘rtasidagi). 前-old, oldin ~ ravish so‘z turkumiga mansub; 围-yon-atrof, atrof ~ ravish so‘z turkumiga oid so‘z; 板 -doska ~ ot so‘z turkumiga oid so‘z. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. R+R+O=O
- 43. 钢丝绳[gāngsīshéng]** – po‘lat tros, po‘lat simlardan ishlangan arqon. 钢-po‘lat~ ot so‘z turkumiga mansub so‘z; 丝- mayda-mayda, ingichka ~ sifat so‘z turkumi; 绳 -arqon ~ ot so‘z turkumi. Kompositsiya usuli orqali yasalgan. O+S+O=O

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, uch morfemali atamalar mavjud avtomobilsozlik atamalarining asosiy qismini tashkil qiladi. Struktur tahlil davomida uch morfemali atamalar 43 tani tashkil qildi.

To'rt va undan ortiq morfemali atamalar

1. 野式轮胎[*yuèyě shì lúntāi*]– “vezdexod” shina. 野-yovvoyi ~ sifat so'z turkumiga mansub; 式- shakl, uslub~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 轮胎- shina ~ ot so'z turkumiga oid so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O+O=O;

2. 防滑轮胎花纹[*fáng huá lúntāi huāwén*] – shinaning himoya naqshi. 防- himoya qilmoq, mudofaa qilmoq~ fe'l so'z turkumida oid; 滑- tekis, silliq~ sifat so'z turkumiga mansub so'z; 轮胎- shina~ ot so'z turkumi; 花- gul ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 纹- hoshiya, uzor, bezak, naqsh ~ ot so'z turkumiga oid so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+S+O+O=O

3. 帆布车篷[*fānbù chēpéng*] – parusina (kanopdan to'qilgan qalin mato)li kuzov yopinchiq'i. 帆-brezent, qalin mato ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 布- mato, gazlama, material~ ot so'z turkumi; 车-mashina, avtomobil-ot so'z turkumi; 篷-naves, yopinchiq, soyabon, bostirma ~ ot so'z turkumiga mansub so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+O+O=O;

4. 钢板弹簧[*gāngbǎn tánhuáng*] – reszor. 钢-po'lat ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 板-doska, taxta ~ ot so'z turkumi; 弹- sharik, yumaloqlangan narsa ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 簧- prujina, reszor ~ ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+O+O=O

5. 内胎气阀[*nèitāi qì fá*] – shina kamerasining havo klapani. 内胎- kamera (avtomoshina g'ildiragi) ot so'z turkumiga oid so'z; 气- havo, nafas, gaz ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 阀-guruh, to'plam- ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+O+O=O;

- 6. 制动连接胶管**[zhì dòng liánjiē jiāoguǎn] – birlashtiruv shlangi. 制- to'xtatmoq, chek qo'ymoq~ fe'l so'z turkumiga mansub; 动- harakatlanmoq, qo'zg'almoq ~ fe'l so'z turkumi; 连接- bog'lamoq, birlashtirmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 胶 – yelim ~ ot so'z turkumiga mansub; 管- truba~ ot so'z turkumiga oid so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O+O=O
- 7. 转向灯**[zhuǎnxiàng zhǐshìdēng] – povorotnik (mashina burilishini ko'rsatgich). 转 - burmoq, o'zgartirmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 向 - yo'nalish, tomon~ravish so'z turkumi; 指示- ko'rsatmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 灯 -chiroq ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+R+F+O=O;
- 8. 门式起重机**[ménshì qǐzhòngjī] – portalli kran. 门-eshik ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 式- uslub, shakl~ ot so'z turkumi; 起- ko'tarmoq~fe'l so'z turkumiga mansub; 重-og'ir~ sifat so'z turkumi; 机- texnika, mexanizm~ so'z yasovchi qo'shimcha, affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. O+O+F+S+A=O;
- 9. 后翼子板**[hòu yìzǐbǎn] – avtomobilning orqa qanotlari (g'ildirak ustidagi). 后- orqa tomon ~ ravish so'z turkumiga mansub; 翼子- qanot ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 板 -doska, taxta~ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O+O=O;
- 10. 前翼子板**[qián yìzǐbǎn] – avtomobilning oldingi qanotlari (g'ildirak ustidagi). 前- oldingitomon, oldi~ ravish so'z turkumiga oid so'z; 翼子- qanot~ ot so'z turkumiga mansub; 板 - doska, taxta~ ot so'z turkumiga mansub so'z. kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O+O=O;
- 11. 行李箱盖**[xínglixīāng gài] – yukxona eshigi. 行李- yuk ~ ot so'z turkumiga mansub so'z; 箱- quti, yashik ~ ot so'z turkumiga mansub; 盖- qopqoq, qalpoq~ ot so'z turkumiga mansub so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+O=O;
- 12. 发动机罩**[fādòngjī zhào] – kapot. 发- jo'namoq, yo'lga chiqmoq, jo'natmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 动- harakatlanmoq~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z;

机- mashina, texnika ~ affiks, soʻz yasovchi qoʻshimcha; 罩- yopinchiq, niqob~ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A+O=O;

13. 散热器盖[sànrèqì gài] – radiator qopqogʻi. . 散- yoymoq, boʻshashtirmoq ~ feʻl soʻz turkumiga mansub; 热- issiq ~ sifat soʻz turkumiga mansub; 器- apparat (biror texnika yoki apparatlarga qoʻshiladigan qoʻshimcha) ~ affiks; 盖- qopqoq, yopinchiq, tom ~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+S+A+O=O;

14. 散热器罩[sànrèqì zhào] – radiatorning himoya qalqoni. 散 - yoymoq, boʻshashtirmoq ~ feʻl soʻz turkumiga mansub; 热- issiq ~ sifat soʻz turkumiga mansub; 器- apparat (biror texnika yoki apparatlarga qoʻshiladigan qoʻshimcha) ~ affiks; 罩- yopinchiq, niqob~ ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+S+A+O=O;

15. 风挡玻璃[fēngdǎng bōli] – shamol toʻsadigan oyna. 风-shamol ~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 挡- toʻsmoq, himoya qilmoq, oldini olmoq~feʻl soʻz turkumiga mansub; 玻璃 -oyna, shisha~ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+F+O=O;

16. 安全玻璃[ānquán bōli] – himoya oynasi, shamol toʻsadigan (sinmaydigan) oyna. 安全- tinch, xavfsiz~ sifat soʻz turkumiga mansub; 玻璃-oyna, shisha ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;

17. 前门三角通风窗[qiánmén sānjiǎo tōngfēng chuāng] – old eshikdagi uchburchakli shamollatish oynachasi. 前-old qism, oldi~ ravish soʻz turkumiga mansub; 门-eshik~ot soʻz turkumi; 三 - uch raqami~ son soʻz turkumi; 角 - burchak~ ravish soʻz turkumi; 通-oʻtmoq, oʻtkazmoq~ feʻl soʻz turkumiga oid soʻz; 风-shamol~ ot soʻz turkumi; 窗-deraza ~ot soʻz turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O+S+R+F+O+O=O;

- 18. 侧门玻璃**[cèmén bōlí] – yon tomon oynalar. 侧-yon, yonbosh~ravish soʻz turkumiga oid soʻz; 门-eshik ~ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 玻璃-shisha, oyna~ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O+O=O;
- 19. 螺旋弹簧**[luóxuán tánhuáng] – vintli resor. 螺旋-vint, spiral~ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 弹簧-prujina, resor~ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
- 20. 弹簧吊耳**[tánhuáng diàoěr] – resor ilgagi. 弹簧-prujina, resor~ot soʻz turkumiga mansub; 吊-ilmoq, osmoq-feʼl soʻz turkumiga mansub soʻz; 耳-quloq~ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+F+O=O;
- 21. 车轮紧固螺丝**[chēlún jǐngù luósī] – gʻildirakni mahkamlaydigan burama mix. 车-mashina, avtomobil~ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 轮-gʻildirak~ot soʻz turkumi; 紧-tarang~ sifat soʻz turkumiga mansub soʻz; 固-turgʻun, mustahkam~sifat soʻz turkumiga mansub soʻz; 螺-spiral, vint~ ot soʻz turkumiga oid soʻz; 丝-mayda tola, ipak~ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+S+O+O=O;
- 22. 挡风玻璃清洗器**[dǎngfēng bōlí qīngxǐqì] – old oynani yuvgich. 挡-toʻsmoq, oldini olmoq, himoya qilmoq~ feʼl soʻz turkumiga oid soʻz; 风-shamol~ot soʻz turkumiga mansub; 玻璃-shisha, oyna~ot soʻz turkumiga mansub soʻz; 清-toza~sifat soʻz turkumi; 洗-yuvmoq~feʼl soʻz turkumiga oid soʻz; 器-soʻz yasovchi qoʻshimcha, affiks (asosan apparat, texnikalar oxiriga qoʻshiladi). Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O+S+F+A=O;
- 23. 点火钥匙**[diǎnhuǒ yàoshi] – oʻt oldirish kaliti. 点-qoʻymoq, yoqmoq~feʼl soʻz turkumi; 火-olov~ ot soʻz turkumiga mansub; 钥匙-kalit~ ot soʻz turkumiga oid soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
- 24. 启动马达**[qǐdòng mǎdá] – starter (dvigatellarni yurgizib beruvchi – oʻt oldiruvchi mexanizm). 启-ochmoq, boshlamoq~ feʼl soʻz turkumiga mansub soʻz; 动-harakatlanmoq~ feʼl soʻz turkumi; 马达-motor~ ot soʻz turkumiga mansub soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O=O;

25. 加速踏板[jiāsù tàbǎn] – akselerator tepkisi. 加-qo'shmoq~ fe'l so'z turkumiga mansub; 速-tezlik~ot so'z turkumi; 踏-chiqmoq, boshlamoq-fe'l so'z turkumiga oid so'z; 板-taxta, doska~ ot so'z turkumiga mansub so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+F+O=O;

26. 制动踏板[zhìdòng tàbǎn] – tormoz tepkisi. 制-to'xtatmoq, taqiqlamoq~ fe'l so'z turkumiga mansub; 动-harakatlanmoq~ fe'l so'z turkumiga mansub; 踏-chiqmoq, boshlamoq~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 板-doska, taxta~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+F+O=O;

27. 离合器踏板[líhéqì tàbǎn] – ulash tepkisi. 离合-birlashtirmoq, bog'lamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 器-apparat ~ so'z yasovchi qo'shimcha, affiks; 踏-boshlamoq, chiqmoq ~ fe'l so'z turkumi; 板- doska, taxta~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+A+F+O=O;

28. 前/后牌照[qián/hòu páizhào] – mashina raqami yozilgan tunuka (old va orqa tomondagi). 前-old, oldingi qism ~ ravish so'z turkumiga mansub; 后- orqa, orqa tomon ~ ravish so'z turkumi; 牌照-raqamli rasm, belgi ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O=O;

29. 排气管口[páiqìguǎn kǒu] – chiqarish trubasi og'zi. 排-qatorlashmoq, navbatda turmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 气-havo, nafas, dam ~ ot so'z turkumi; 管- truba~ ot so'z turkumiga mansub; 口-og'zi, og'iz ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O+O=O;

30. 发动机盖[fādòngjī gài] – kapot. 发- jo'namoq, yo'lga chiqmoq, jo'natmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 动- harakatlanmoq~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z; 机- mashina, texnika ~ affiks, so'z yasovchi qo'shimcha; 罩- yopinchiq, niqob~ot so'z turkumiga oid so'z. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A+O=O;

Ushbu bo'limda biz avtomobilsozlikka oid to'rt va undan ortiq morfemalardan tashkil topgan atamalarni o'rganib chiqdik. Biz tahlil qilib chiqqan atamalar jami bo'lib 30 tani tashkil qiladi va ularning soni uch morfemali atamalarga nisbatan kam sonlidir.

Tahlil qilingan 102 ta termindan 16 tasi yoki 16,32%i affiksatsiya yo‘li bilan, qolgan 86 tasi yoki 87,72%i kompozitsiya usuli asosida yasalgan. Demak, avtomobilsozlik terminlari ichida kompozitsiya usulida yasalgan terminlar yaqqol ko‘pchilikni tashkil etmoqda. 器 [qì] affiksi bilan 13 termin yoki barcha terminlarning 13,26%i, 表 [biǎo] yarim affiksi bilan esa 3 ta termin yoki barcha terminlarning 3,06%i yasalgan.

Yasalish usuli	Ikki morfemali	Uch morfemali	To‘rt va undan ortiq morfemali
Affiksatsiya	-	19	2
Kompozitsiya	28	24	28
Jami	28	43	30

Yuqoridagijadvaldanko‘riningturibdiki,

atmalarningyasalishidaasosiyetakchiliknikompozitsiyausuliegalaydi.

Tahlil qilingan 102 ta termindan 28 ta termin yoki 28,56%i ikki morfemali, 43 ta termin yoki 43,86%i 3 morfemali, 21 ta termin yoki 21,42%i to‘rt morfemali, 8 ta termin yoki 8,16%i esa besh va undan ortiq morfemalidir. Demak, avtomobilsozlik terminlari ichida eng ko‘p uchraydigan terminlar uch morfemali terminlardir.

Strukturjihtdantahliljarayonidaatamalar tarkibidagiso‘zlarningasosiyqismi to‘rt tur kumiga oidekanligivayakuniybutunso‘z to‘rt tur kumidagiatamaekanligi ham kuzatiladi.

Terminlar o‘rtasida sinonimiya hodisasi ham kuzatildi. Masalan: 履带 lǚdài – gusenitsa (tank, traktor va shu kabilarda g‘ildirak vazifasini o‘tovchi keng zanjir tasma) va 链轨 liànguǐ – gusenitsa (tank, traktor va shu kabilarda g‘ildirak vazifasini o‘tovchi keng zanjir tasma) terminlari, hamda 散热器 sànrèqì – radiator va 水箱 shuǐxiāng – radiator, 蓄电池 xùdiànchí – akkumulyator va 电瓶 diànpíng – akkumulyator terminlari o‘zaro sinonimdir.

Ikki, uch hamda to‘rt va undan ortiq morfemali avtmobilsozlikka oid atamalarni struktur jihatdan tahlil qilib chiqqanda, miqdor jihatdan uch morfemali atamalar

ustun ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu atamalarning ko'p qismi asosan, 器-apparat, texnikalarni ko'rsatishda ishlatiladigan affiksi va 表 - jadval, ko'rsatgich ma'nolarini ifodalaydigan so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi hisobiga ham miqdor jihatdan ko'payish holatlari kuzatiladi.

3.1. Matnlar asosida avtomobilsozlikka oid atamalarning struktur va miqdoriy tahlili

Biz ushbu rejamizda avtomobilsozlikka oid matnlar (ushbu matnlar avtomobilning yo'riqnomalari, avtomobilning ba'zi ehtiyot qismlarining tasnifi va boshqa shu kabi mazmunlarni qamrab oladi) asosida avtomobilsozlik atamaları ustida tadqiqot olib boramiz. Ya'ni matnlarda uchraydigan avtomobilga oid atamalarni o'rganib chiqamiz va ularni miqdor va struktur jihatdan tahlil qilamiz. Ushbu tahlil orqali avtomobilning eng ko'p qo'llaniladigan atamaları va eng kichik qismlarini, shuningdek, hozirgi zamonaviy avtomobillarda o'rnatilayotgan electron apparatlar bilan ham tanishib chiqimiz mumkin.

Biz quyida tahlil qilib chiqadigan birinchi matn Beidou 北斗星[běi dǒu xīng] (Katta Ayiq yulduzi) avtomobil kompaniyasiga tegishli bo'lgan mini avtobus yoki hatchback avtomobili borasida so'z boradi.

北斗星轿车

本车为您提供了宽敞的乘坐空间和物品存放区。无论您是携家旅游还是出门购物，本车都是您最满意的选择。

短头结构的车身，既增加您的视野又符合国家现行碰撞法规，可让您安心驾驶。车上配备的安全带，选装的前排双安全气囊和 ABS 防抱死制动系统都为您乘车安全提供最大保护。

优良的发动机管理系统对发动机的工作进行精确控制，不仅使汽车的排放污染物数量大大地降低，而且使汽车具有良好的起动性，加速性，燃油经济性让您充分享受驾驶乐趣并提高工作效率。先进的前后悬挂系统。

本车配备了暖风系统，空调（冷气）系统，无论是在热烈日炎炎的夏季还是在严寒的冬季，它都可以为您提供满意的环境舒适度。

本车设置 5 个车门，既方便乘客上下车，又方便少量物品的装卸。通过适当调整座椅，更可以搭载较大物品。

Beidou yengil avtomobili(hatchback- mini avtobus)

Ushbu avtomobil keng o'rindiqlar va narsalarni saqlash joyiga ega. Sayohatga yoki xarid uchun ko'chaga chiqishingizdan qat'iy nazar, ushbu avtomobil siz uchun eng qulay tanlovdir.

Qisqa kapot shaklidagi ushbu avtomobil sizning dunyoqarashingiz hamda mamlakatning hozirda amaliyotga tatbiq etilgan avtomobillar to'qnashuvi borasidagi qonun-qoidalariga ham mos keladi. Avtomobilga o'rnatilgan xavfsizlik belbog'I, old qatordagi ikki o'rindiq oldiga joylashtirilgan xavfsizlik havo pufagi va ABS qulflanib qolishga qarshi tormoz (anti-lock braking) sistemasi sizning avtmobildan foydalanishingizda eng katta himoyani ta'minlab beradi.

Judayam yaxshi va sifatli motor (dvigatel) boshqaruv tizimi motorning to'g'ri ishlashini nazorat qilib boradi. Nafaqat avtomobilning chiqitlar chiqarish hajmini pasaytiradi, shuningdek, avtomobilga juda yaxshi o't oldirish, tezlikni oshirish, yoqilg'ini tejash xususiyatlari bilan sizga eng yaxshi ish koeffisientini taqdim qiladi. Ushbu avtomobilga isitgich va sovutgich sistemasi ham joylashtirilgan bo'lib, hoh issiq yoz fasli yoki juda han sovuq qish fasli bo'lsin, sizni qoniqtiradigan qulay sharoitni ta'minlab beradi.

Avtomobilda 5 ta eshik o'rnatilgan bo'lib, bu nafaqat avtomobilga chiqish va tushushda balki yuklarni joylashtirishda ham qulaylik tug'diradi. Shuningdek o'rrindiqlarni xohlagandek tartibga solish va nisbatan ko'proq yuk joylash ham mumkin.

1. 北斗星 [běidǒuxīng]- Beidou (Katta Ayiq yulduzi) avtomobil markasi. Shansi avtomobil savdo-sotiq kompaniyasi 1998-yil aprelda tashkil topgan. Ushbu kompaniya Yaponiyaning SUZUKI avtokompaniyasi bilan hamkorlikda oilaviy, ko'p funksiyalarga ega bo'lgan avtomobillarni ishlab chiqaradi.
2. 轿车[jiào chē]- yengil avtomobil. Odatiy yengil avtomobillardan kattaroq va kengroq shaklga ega bo'lga mashina. Ushbu avtomobil baland va o'rindiqlari keng joylashgan. Asosan, uzoq masofali hamda sayohatlarga mo'ljallangan. Mini avtobusdan kichikroq.
3. 物品存放区[wùpǐn cún fàng qū]- avtomobilning narsalar saqlanadigan qismi. 物品-narsa, buyum ~ ot so'z turkumiga mansub; 存放-saqlamoq ~ fe'l so'z turkumi 区 - zona, hudud ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+F+O=O;
4. 安全带 [ān quán dài]- xavfsizlik belbog'i. 安全- xavfsizlik ~ sifat so'z turkumi; 带-belbog', kamar ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
5. 双安全气囊 [shuāng ān quánqínáng]-juft xavfsizlik yoztig'I, xavfsizlik havo pufagi (electronic control of safety airbag). 双-juft ~ son so'z turkumiga mansub; 安全- xavfsizlik ~ sifat so'z turkumi; 气- havo, dam ~ ot so'z turkumiga mansub; 囊 -sumka, pufak, shar ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+S+O+O=O;
6. ABS 防抱死制动 [fáng bào sǐzhì dòng]- qulflanib qolishga qarshi tormoz sistemasi (anti- lock braking system). 防-himoya qilmoq ~ fe'l so'z turkumi; 抱- ushlab qolmoq, quchoqlamoq ~ fe'l so'z turkumiga oid; 死-o'lmoq~ fe'l so'z turkumi; 制动-tormoz, to'xtatib qolmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+F+F=O;

7. 发动机 [fā dòng jī] – motor, dvigatel. 发– boshlamoq, fe’l soʻz turkumiga mansub, 动– harakatlanmoq, fe’l soʻz turkumiga mansub, 机– moslama, qurilma, ot soʻz turkumiga mansub, bu yerda soʻz yasovchi yarim affiks vazifasini bajarmoqda. Affiksatsiya usuli asosida yasalgan. F+F+A=O;
8. 排放污染 [pái fàngwūrǎn]- avtomobilning chiqitlarni chiqarib tashlaydigan qismi. 排放- chiqarib tashlamoq, uloqtirib tashlamoq ~ fe’l soʻz turkumiga mansub; 污染-zararli narsalar, ifloslanish ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
9. 起动[qǐ dòng]- motorni oʻt oldirmoq. 起 – turmoq, koʻtarmoq, boshlamoq ~ fe’l soʻz turkumiga oid; 动-harakatlanmoq ~ fe’l soʻz turkumiga oid soʻz. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F=F;
10. 加速 [jiā sù]- tezlikni oshirmoq. 加 - qoʻshmoq ~ fe’l soʻz turkumi; 速- tezlik ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yaratilgan. F+O=F;
11. 燃油 [rán yóu]-yoqilgʻi sarflamoq. 燃 –yoqmoq, sarflamoq ~ fe’l soʻz turkumi; 油-benzin, yoqilgʻi ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=F;
12. 前后悬挂 [qián hòuxuán guà]- avtomobilning oldingi orqa tomonidagi ilgaklari⁶⁸, oʻrnatgichlari. 前后- oldingi va orqa qism ~ ravish soʻz turkumi; 悬挂-ilmoq, oʻrnatgichlarni ~ fe’l soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+F=O;
13. 暖风 [nuǎn fēng]-avtomobilning isitgich sistemasi. 暖-issiq, iliq ~ sifat soʻz turkumiga mansub; 风-shamol ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
14. 空调机 [kōng tiáo] – avtomobilning sovutgich tizimi (konditsioner). 空-boʻsh, havo~ sifat soʻz turkumi; 调- yoʻlga qoʻymoq, toʻgʻrilamoq ~ fe’l

⁶⁸ Avtomobilning oldingi va orqa qismidagi balon-gʻildiraklarni avtomobilga bogʻlaydigan, oʻrnatadigan qismi.

so'z turkumi; 机-texnika, mexanizm, so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. S+F+A=O;

15.车门 [chē mén]- avtomobil eshigi. 车-avtomobil, mashina ~ ot so'z turkumi; 门-eshik ~ ot so'z turkumi. O+O=O;

16.座椅 [zuò yǐ]- avtomobil o'rindig'i. 座-o'tirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 椅-stul, kreslo ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O

Quyida tahlil qilib chiqadigan matn HONDA avtomobilsozlik kompaniyasiga qarashli bo'lgan yengil avtomobilning xavfsizlik yo'riqnomasi hisoblandi. Ushbu matnda yanada tushunarliroq bo'lishi uchun ushbu mayda ehtiyot qismlarining rasmi ham keltiriladi.

本田 (HONDA) 利用遥控器锁门安全系统

...可利用遥控器给您的车辆闭锁或开锁。当按下闭锁按钮时，所有车门都被锁上。同时安全系统被设定，车外所有转向信号灯及仪表盘上的两盏转向指示灯将闪烁三次。按一次开锁按钮，只能打开驾驶员侧车门锁。再次按下该按钮，可打开其余车门锁。每按一次该按钮，车外所有转向信号灯及仪表盘上的两盏转向指示灯将闪烁一次。当您按下开锁按钮时，前顶灯(限于某些车型)与后顶灯(如果这几盏灯的开关处于开闭车门时的位置)将亮起。如果此时您不打开任何一扇车门，这几盏灯将大约持续点亮三十秒钟，然后逐渐淡出。如果三十秒钟内，利用遥控器再度锁上各扇车门，这几盏灯将立即熄灭。如果任何一扇车门尚未关紧，或者车钥匙插在点火开关上时，则无法利用遥控器闭锁各扇车门。

遥控器点火钥匙开锁闭锁





HONDA avtomobilining masofaviy boshqaruv kaliti orqali qulflash xavfsizlik tizimi

...masofaviy boshqariladigan electron kalitdan foydalanib avtomobilingizning eshigini qulflashingiz yoki ochishingiz mumkin. Qulflash tugmachasini bosganingizda, avtomobilning barcha eshiklarin qulflanadi. Shu bilan birga xavfsizlik sistemasi ham o'rnatiladi (ishga tushadi), avtomobilning tashqi qismidagi barcha yo'nalishni o'gartiruvchi signalli fonarlar hamda asbob-uskuna paneli tepasidagi ikkita yo'nalishni o'zgartiruvchi fonar uch marta yonib o'chadi. Qulfni ochish tugmasini bir marta bosish bilan, faqatgina haydovchi tomondagi eshik qulfi ochiladi. Ushbu tugmani qayta bosish bilan qolgan barcha eshiklar ochiladi. Har safar ushbu knopkani bosganda, avtomobil tashqi qismidagi barcha yo'nalishni o'zgartiruvchi signalli faralari hamda tezlik ko'rsatkichi (spidometr) ustidagi ikkita yo'nalishni o'zgartiruvchi fonar bir marta yonib o'chadi.

Siz qulfdan chiqarish tugmasini bosganingizda, avtomobilning oldingi chirog'i (ba'zi avtomobil markalarida uchraydi) va ortki chiroq yonadi. Agar shu vaqtda siz hech qaysi eshikni ochmagan bo'lsangiz, bu bir necha chiroqlar o'ttiz sekund favomoida yonib turadi, keyin asta-sekin o'chadi. Agar ushbu o'ttiz sekund ichida, masofaviy boshqaruv kalitidan foydalanib yana eshiklarni qulflasangiz, bu chiroqlar darhol o'chadi. Agar biror bir eshik yaxshi yopilmagan bo'lsa yoki

avtomobil kaliti o't oldirish moslamasiga tiqilgan bo'lsa, masofaviy boshqaruv kaliti bilan avtomobil eshiklarini qulflashning iloji yo'q.

Matnda uchragan asosiy atamalar

1. 本田 [běn tián]- HONDA avtomobil markasi. HONDA xalqaro avtomobil markasi hisoblanib, motosikl ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari qishloq xo'jalik avtomobillarini ham ishlab chiqaradi. 1948- yilda tashkil topgan bo'lib, bosh idorasi Tokioda joylashgan.
2. 遥控器 [yáo kòng qì]- avtomobilning masofaviy boshqariladigan kaliti. 遥控- masofadan boshqarmoq, teleboshqaruv ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 器- apparat, so'z yasovchi qo'shimcha. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+A=O;
3. 闭锁 [bìsuǒ]-qulflamoq, berkitmoq; 闭 yopmoq, berkitmoq ~ fe'l so'z turkumi, 锁- qulf ~ ot so'z turkumi.
4. 开锁 [kāi suǒ] –qulfdan chiqarmoq, ochmoq; 开 ochmoq ~ fe'l so'z turkumi; 锁-qulf ~ ot so'z turkumi.
5. 转向信号灯 [zhuǎnxiàng xìn hào dēng]- yo'nalishni o'zgartiradigan signalli fonari (avtomobilning oldingi faralari). 转向- yo'nalishni o'zgartirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 信号-signal ~ ot so'z turkumi; 灯- chiroq ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
6. 仪表盘 [yí bǐǎobǎn]- tezlik ko'rsatkich, uskunalar paneli⁶⁹, spidometr. 仪表- asbob-anjom, uskuna ~ ot so'z turkumida mansub so'z; 盘- disk, panel ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
7. 转向指示灯 [zhuǎnxiàngzhǐshì dēng] – yo'nalishni o'zgartiruvchi ko'rsatkich lampa, fara (indikator). 转向- yo'nalishni burmoq, o'zgartirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 指示- ko'rsatmoq, bildirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 灯- lampa, chiroq ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O=O ;

⁶⁹Ushbu panelda spidometrdan tashqari yana yoqilg'I sarflash jadvali ham ko'rsatilgan bo'ladi. ushbu uchta jadvalning umumiy nomi.

8. 前顶灯 [qiándǐngdēng] – oldingi yuqori chiroq (avtomobil ichida oldingi qator yuqori qismidagi old chiroq). 前顶- oldingi yuqori qism ~ ravish soʻz turkumi; 灯- lampa, chiroq ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O=O;
9. 后顶灯 [hòu dǐng dēng]- yuqori ortgi chiroq (avtomobil ichida oldingi qator yuqori qismidagi ort chiroq). 后顶- ort yuqori qism ~ ravish soʻz turkumi; 灯- chiroq, lampa ~ ot soʻz turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+O=O;
10. 车钥匙 [chēyào shi] – avtomobil kaliti. 车- avtomobil, mashina ~ ot soʻz turkumi; 钥匙-kalit ~ ot soʻz turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
11. 闪烁[shǎn shuò] –yonib - oʻchmoq, pirpiratmoq;
12. 盏灯 [zhǎn dēng]–avtomobilning chiroqlari.

汽车锁门安全系统

每扇车门的上部均有一个锁栓。当您按下驾驶员侧车门上的锁栓时，所有的车门都被锁上。拉起驾驶员侧车门上的锁栓只能开启该扇车门。乘员席各扇车门上的锁栓只能锁上或开启各自的车门。下车时，若欲锁上乘员侧的任何一扇车门，需先按下锁栓，然后关上车门。若欲锁上驾驶员侧车门，需从点火开关上拔下钥匙，按下锁栓或按下总开关的顶部，然后关上车门。利用驾驶员侧车门钥匙可锁上所有的车门。按逆时针方向拧动钥匙随即松开所有的车门同时被锁上。安全系统亦被设定所有的外部转向信号灯和仪表盘上的两盏转向信号指示灯将闪烁三次。



Avtomobilning ichki qulflash xavfsizlik tizimi

Avtomobilning har bir eshigi tepa qismida ichki qulflash tugmachasi mavjud. Haydovchi eshigidagi ichki qulflash tugmachasi bosilgan vaqtda barcha eshiklar qulflanadi. Haydovchi tomondagi eshik tepasidagi ichki qulflash tugmachasini tepaga tortilgan vaqtsa faqatgina o'sha eshik ochiladi. Boshqa o'rindiqdagi yo'lovchilar o'zlari tomondagi eshikning ichki qulflash tugmasini o'zlari ochishlariga to'g'ri keladi.

Avtomobildan tushayotganlarida, yo'lovchilar tomondagi eshiklarni qulflash uchun avval ichki qulflash tugmasini bosish kerak, shundan so'ng eshik qulflanadi. Agar haydovchi tomondagi eshikni qulflash uchun, o't oldirish o'chirib yoqgichidan kalitni sug'urib chiqarish kerak va ichki qulflash tugmasini bosish yoki o'chirib yoqgichning yuqori qismini bosish so'ngra eshikni qulflash kerak.

Haydovchi tomondagi eshik kalitidan foydalanib, barcha eshiklarni qulflash mumkin. Xavfsizlik tizimi barcha tashqi qismdagi yo'nalishni o'zgartiruvchi signalli chiroq va spidometr dagi ikkita signalli chiroqning uch marta yonib o'chishi orqali o'rnatilgan.

锁栓 [suǒ shuān] – ichki qulf tugmasi (avtomobil eshiki tepasida eshikni qulflash va ochish uchun xizmat qiladigan tugma, sistema. Ushbu tugmani bosish bilan eshik qulflanadi, yuqoriga tortish orqali eshik qulfdan chiqariladi).

点火开关 [diǎn huǒ kāi guān] – o't oldirish yoqib-o'chirgichi (vklyuchateli). 点- qo'ymoq, yoqmoq ~ fe'l so'z turkumi; 火- olov ~ ot so'z turkumi; 开关- o'chirib- yoqgich (vklyuchatel) ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O; 上锁 [shàngsuǒ]- avtomobilning qulflash tugmachasi.⁷⁰ 上 yuqori, tepa ~ ravish so'z turkumi; 锁 – qulf ~ ot so'z turkumi. R+O=O

Yuqoridagi xavfsizlik sistemasi bilan bog'liq bo'lgan kichik matn avtomobilning ichki qismida, ya'ni o'zining tarkibida bo'lgan qulflash qismidir.

WK-20 挖掘机维修手册⁷¹

WK-20 挖掘机推压机构采用齿轮-齿条推压方式。铲斗采用铸焊结构。斗杆采用双梁、变截面和变板厚组合式高强度斗杆，推压齿条采用高锰钢铸造齿条。起重臂采用单梁箱形焊接结构，根脚与回转平台采用大跨距销轴联接。推压机构采用硬齿面圆柱齿轮传动，并配有力矩限制装置。双脚支架前压杆和后拉杆采用板梁焊接结构。绷绳装置采用四根等长的死绷绳结构。回转平台采用箱形焊接结构。提升机构采用硬齿面圆柱齿轮传动装置，提升钢丝绳采用单卷筒双钢丝绳缠绕方式。回转机构采用立式同轴硬齿面圆柱齿轮传动装置，回转立轴采用简支梁支承结构。辊盘的辊子采用圆锥形结构。底架和履带架采用焊接结构。履带行走装置采用多支点支承型式，驱动方式采用左、右履带单独驱动。行走减速机采用硬齿面圆柱齿轮传动。驱动轮、张紧轮、支重轮等采用合金钢或高锰钢铸件或锻件，履带板采用高锰钢铸件。

⁷⁰Faqat haydovchi eshigida joylashgan qora tugmacha, ushbu tugmachani bosish orqali hamma eshiklarni qulflash mumkin.

⁷¹WK-20 挖掘机机械维修手册内容，百度文库，2011 年 1 月

主要承载焊接结构件：如铲斗、斗杆、起重臂、双脚支架、回转平台、底架和履带架等均采用焊接性能好，低温冲击韧性高的低合金高强度调质或正火钢板和耐磨钢板。传动件材料采用韧性好、强度高的 Ni-Cr-Mo 合金材料。提升、回转、推压等传动机构采用盘式制动器。传动机构稀油润滑采用分散油池独立循环系统；油脂润滑采用定时、定量、自动、集中供油和喷射润滑系统。

WK-20 Ekskavatorining asosiy servis qo'llanmasi

WK-20 ekskavatorining preslovchi qurilmasi tishli g'ildirak-tishli zanjir ko'rinishidadir. Ekskavator cho'michi payvandlash orqali mustahkam biriktirilgan. Ekskavator cho'michiga biriktirilgan uzun dasta juft ustunlardan foydalanilgan. Parraklagich va o'zgaruvchan qalin doskasi yuqori darajadagi mustahkam ustunlar bilan birlashtirilgan. Itargich tishli zanjiri yuqori marganes va po'latqorishmasidan foydalanib tishli tros yaratilgan. Ko'targich kran bir ustunli yashik ko'rinishidagi payvandlab ulangan tuzlimadan tashkil topgan, fundament va aylanuvchi kabina katta masofaviy cheka o'qi yordamida birlashtirilgan. Preslash qurilmasi qattiq tishli yumaloq ustunlardan foydalanib tishli g'ildiraklarning aylanuvchi harakati amalga oshadi. Juft oyoqli tirkagichning oldinga turtib chiqaradigan dastagi va ortga tortadigan dastaklari doskali ustunlarni payvandlash orqali biriktirilgan. Uzun mustahkam zanjir to'rtta uzun troslardan tashkil topgan. Aylanuvchi ramka yashik, quti shaklidagi tashkil yaratilgan. Ko'tarish qurilmasi qattiq tishli yumaloq ustunlardan foydalanib, tishli g'ildirak aylanuvchi o'rnatish joyi yaratilgan. Po'lat zanjir bittalik o'rama truba va juft po'lat zanjirni o'rash usuli orqali tashkil qilingan. Aylanuvchi qurilma tikka o'q, qattiq tishli dumaloq ustunli tishli g'ildirakning aylanma o'rnidan tashkil topgan. O'rash g'ildiragidagi o'rama yumaloq bigiz shalida qurilgan. Pasyki polka va sudrovchi shakldagi ramka ham payvandlash orqali bir –biriga biriktirilgan. Gusenichniy qator ko'plab terib olingan ko'rinishida bo'lib, harakatga keltiruvchi chap, o'ng sudrash moslamasi alohida harakatlantiriladi. Tezlikni kamaytiruvchi moslama qattiq tishli yumaloq

ustunlardan foydalanib tishli g'ildiraklarni aylantiradi. Harakatga keltiruvchi g'ildirak, zichlikni ochuvchi g'ildirak, yig'iladigan ikkitalik g'ildirakoltin po'lat yoki yuqori darajadagi marganes po'lat aralashmasidan birlashtirilgan.

Asosiy tashkil topgan elementlari: ekskavator cho'michi, cho'michga biriktirilgan uzun ustunlar yoki dastaklar, ko'taruvchi kran, juft oyoqli tirkagich, aylanuvchi kabina (ramka), pastki polka va track ramka va boshqa payvandlash xususiyatidagi qismlardan tashkil topgan, shuningdek, past haroratli zarba beruvchi xususiyatidagi yuqori darajadagi materilardan tashkil topgan po'lat plitalar va yanchuvchi doskalardan iborat. Aylanuvchi qism materiali chidamli, pishiq bo'lgan Ni-Cr-Mo elementlaridan tashkil topgan materiallardan yaratilgan. Ko'tarish, aylanish, itarish va boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi qismlar uchun disk shaklidagi tormozlardan foydalanilgan. Aylanish moslamasi moyi yoqilg'ini tarqatish havzasi alohida skill tizimdan foydalaniladi. Salodan foydalanilayotgan vaqtda, mustahkamlik, o'zi harakatlanish, yog'larni taminotini markazlashtirish va smzaka fontan tizimi ham amalga oshadi.

Matnda uchragan atamalar

1. 挖掘机 [wājuéjī]- ekskavator. 挖掘- kovlamoq, qazimoq~ fe'l so'z turkumi; 机- mashina, texnika ~ affiks. Affiksatsiya usuli yordamida yasalgan. F+A=O;
2. 推压机[tuī yā jī]-ekstruder, itargich, press. 推-itarmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 压- qismoq, siqmoq ~ fe'l so'z turkumi; 机- mashina, texnikani bildiruvchi affiks. Affiksatsiya usuli yordamida yasalgan. F+F+A=O;
3. 齿轮 [chǐlún]- tishli g'ildirak, shesternya. 齿- tish ~ ot so'z turkumi; 轮- g'ildirak ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;

4. 齿条[**chǐ tiáo**]-ekskavatorning tishli sim (zanjir) qismi. 齿-tish ~ ot so'z turkumi; 条 - sim chiviq, prut, poloska ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
5. 铲斗[**chǎndǒu**] – ekskavator cho'michi (kovshi). 铲 belkurak, kurak, uchi o'tkir belkurak ~ ot so'z turkumiga mansub; 斗- cho'mich, kovsh ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
6. 铸焊 [**zhùhàn**]-payvandlab biriktiruvchi qism (svarka). 铸- quymoq, ag'darmoq ~ fe'l so'z turkumi; 焊 payvandlash, payvandlab ulash ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
7. 斗杆 [**dǒugān**]-ekskavatorning cho'mich (kovsh) ustuni (uzun tayog'i). 斗- cho'mich, kovsh ~ ot so'z turkumi; 杆- xoda, uzun tayoq, ustun. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
8. 双梁 [**shuāng liáng**] – juft to'sin, balka. 双- juft, ikkitalik ~ son so'z turkumi; 梁- balka, to'sin, turnik ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
9. 变截面 [**biàn jié miàn**]- ekskavatorning o'zgaruvchi kesgich qismi, parraklagich. 变-o'zgarmaq ~ fe'l so'z turkumi; 截- kesmaq, qirqmaq ~ fe'l so'z turkumi; 面-yuz, sirt ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O=O;
- 10.变板厚 [**biàn bǎnhòu**]- o'zgaruvchi qalin doska (ekskavatorning qalin o'zgaruvchi uzun taxta qismi). 变- o'zgarmaq ~ fe'l so'z turkumi; 板-doska, taxta ~ ot so'z turkumiga oid so'z; 厚 - qalin ~ sifat so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+S=O;
- 11.推压齿条 [**tuī yā chǐ tiáo**]- ekskavatorning itargich, press qismining tishli zanjiri. 推-itarmoq, turtmaq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 压- qismoq, siqmaq ~ fe'l so'z turkumi; 齿-tish ~ ot so'z turkumi; 条- sim chiviq, prut, poloska ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O+O=O;

- 12.单梁箱 [dān liáng xiāng]- bir (balkali) to'sinli yashik, quti. 单-yolg'iz, yakka, bitta~ sifat so'z turkumi; 梁- balka, ustun~ ot so'z turkumi; 箱-yashik, quti ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O+O=O;
- 13.焊接 [hànjiē]- palka, kavshar, payvandlash (svarka). 焊- payvandlamoq, svarka ~ fe'l so'z turkumiga oid; 接-ulamoq, bog'lamoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub so'z. kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F=O;
- 14.回转平台 [huí zhuǎnpíngtái] – ekskavatorning aylanadigan ramkasi⁷² (Revolving frame). 回转-aylanmoq, qayrilmoq ~ fe'l so'z turkumi; 平台-ayvon, peshtaxta ~ ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
- 15.跨距销轴 [kuàjù xiāo zhóu]-ekskavatorning masofaviy (ajtali turadigan) cheka o'qi.⁷³跨- qadam tashlamoq, o'tmoq ~ fe'l so'z turkumi; 距-..dan ajralib turmoq, masofa ~ fe'l so'z turkumi; 销- cheka, chuv ~ ot so'z turkumi; 轴- o'q ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O+O=O;
- 16.双脚支架 [shuāng jiǎozhī jià]- juft oyoqli tiragich (podporka). 双- juft~son so'z turkumi; 脚- oyoq ~ ot so'z turkumi; 支架- tiragich, tirgovich ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O+O=O;
- 17.前压杆[qián yā gān]- oldingi siqadigan (preslaydigan) dastagi. 前-old, oldingi qismi ~ ravish so'z turkumi; 压- qismoq, siqmoq ~ fe'l so'z turkumi; 杆-ustun, dastak ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+F+O=O;
- 18.后拉杆[hòu lāgān]- ortga tortadigan dastak. 后- ortgi qism, orqa ~ ravish so'z turkumi; 拉-tortmoq, chiqarmoq ~ fe'l so'z turkumi; 杆-dastak ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. R+F+O=O;

⁷²Ekskavatorning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu aylanadigan ramkada (peshayvon) asosiy boshqaruv tizimi joylashgan.

⁷³Ushbu qism narvonga o'xshash bo'lib, ikki ustun orasi ajralgan holda bo'ladi.

19. 钢丝绳 [bēngshéng]- tarang tortilgan tros, arqon.⁷⁴ 绷 - tarang tortmoq, cho'zmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 绳- arqon, tros ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
20. 钢丝绳 [gāng sī shéng] – po'lat tros, po'lat simlardan ishlangan arqon. 钢– po'lat, ot so'z turkumiga mansub, bu yerda sifat vazifasini bajarmoqda, 丝– sim, yupqa sim, ot so'z turkumiga mansub, 绳 – arqon, tros, ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli asosida yasalgan. S+O+O=O
21. 单卷筒 [dān juǎntǒng]- bittalik o'rama truba. 单-bir, yakka ~ sifat so'z turkumi; 卷- o'rama, rulon ~ ot so'z turkumi; 筒-truba ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O+O=O;
22. 缠绕 [chán rào]- o'rab tashlamoq.
23. 辊盘 [gun 3 pán]– aylantirgich, o'ragich g'ildiragi. 辊- aylantirgich, o'rama, bog'lam ~ ot so'z turkumiga mansub; 盘- g'ildirak ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
24. 辊子 [gǔn zi] – ekskavatorning o'ragich, aylantirgich qismi. 辊 - aylantirmoq, o'ramoq~ fe'l so'z turkumi.
25. 底架 [dǐ jià] – pastki polka. 底- pastki qism, past ~ sifat so'z turkumi; 架- polka, javon, etajerka ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
26. 履带架[lǚ dài jià] – sudrovchii shakldagi ramka (track type frame).⁷⁵ 履带 – sudrovchi, gusenichniy ~ sifat so'z turkumi; 架- ramka ~ot so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O=O;
27. 减速机 [jiǎn sù jī]- tezlikni kamaytirgich. 减- kamaytirmoq, qisqartirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 速-tezlik ~ ot so'z turkumi; 机 texnikani bildiradigan affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+O+A=O;

⁷⁴Ekskalatorning uzun dastagi, uzun ko'targichidagi qalin zanjir. Ikki ustunni bir biriga mustahkam bog'lab, harakatini ta'minlab beradi.

⁷⁵Ekskalatorning trosli g'ildiragining ramkasi nazarda tutilmoqda.

28. 驱动轮 [qūdòng lún] – harakatga keltiruvchi g'ildirak. 驱动- harakatga keltirmoq ~ fe'l so'z turkumi; 轮-g'ildirak koleso ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O;
29. 张紧轮 [zhāng jǐn lún]- zichlikni ochuvchi g'ildirak. 张-ochmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 紧- zich, jips, mustahkam ~ sifat so'z turkumi; 轮-g'ildirak, koleso ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+S+O=O;
30. 支重轮 [zhī chóng lún] - yig'iliniladigan ikkitalik g'ildirak. 支 yig'ib olmoq, terib olmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z ; 重- ikkitalik ~ sifat so'z turkumi; 轮- g'ildirak ~ ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+S+O=O;
31. 起重機 [qǐzhòngjī] - ko'tarma kran. 起 ko'tarmoq, turmoq ~ fe'l so'z turkumiga oid so'z; 重-og'ir, ikkitalik ~ sifat so'z turkumi; 机- mashina, mexanizmni ifodalaydigan affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+S+A=O;
32. 低温冲击机 [dī wēnchōng jī] – past haroratli zarba beruvchi qismi. 低-past ~ sifat so'z turkumi; 温- harorat ~ ot so'z turkumi; 冲击- musht, zarba bermoq, to'qnashmoq ~ fe'l so'z turkumi; 机 –mashina, mexanizmni ifodalovchi affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. S+O+F+A=O;
33. 钢板 [gāng bǎn]- po'lat plita, list. 钢-po'lat ~ ot so'z turkumi; 板- plita, taxta, doska, list ~ ot so'z turkumiga oid. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O=O;
34. 传动机 [chuán dòng jī]- ekskavatorning yetkazib bergich, o'tkazib beruvchi mexanizmi. (transmissiya, peredacha). 传动 yetkazib bermoq, olib bermoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 机 - texnika, mexanizmni ifodalaydigan affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+A=O;

35. 制动器 [zhì dòng qì] – tormoz. 制 – to'xtatmoq ~ fe'l so'z turkumi; 动- harakatlanmoq ~ fe'l so'z turkumi; 器- apparat, mexnizmni ifodalaydigan affiks. Affiksatsiya usuli orqali yasalgan. F+F+A=O;
36. 稀油润滑 [xī yóu rùn huá]- suyuq moy bilan moylagich (smazka). 稀-suyuq ~ sifat so'z turkumi; 油- yoqilg'I, benzin, kerosin ~ ot so'z turkumi; 润滑- moylamoq, moylash ~ fe'l so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. S+O+F=O;
37. 分散油池 [fēn sǎn yóu chí] – yoqilg'ini tarqatib beruvchi havza (ekskavatorning kerosinni tarqatib beruvchi havza qismi). 分散-tarqatib yubormoq, sachratmoq ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 油- benzin, kerosin, yoqilg'I ~ ot so'z turkumi; 池- basseyn, havza, ko'lmak, o'ra ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O+O=O;
38. 油脂润滑 [yóu zhī rùn huá] – moylagich, salo, moy.⁷⁶ 油 – yoqilg'I, benzin ~ ot so'z turkumi; 脂-moy ~ ot so'z turkumi; 润滑 –moylamoq, moylash, smazka~ fe'l so'z turkumiga mansub. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. O+O+F=O;
39. 集中供油 [jí zhōnggōngyóu] – yoqilg'ini taminotini markazlashtiradigan, to'playdigan tizimi. 集中- markazlashtirmoq, to'plamoq, yig'moq ~ fe'l so'z turkumi; 供- ta'minlab bermoq, ta'minot ~ fe'l so'z turkumiga mansub; 油- yog', kerosin, yoqilg'I ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+F+O=O;
40. 喷射润滑 [pēn shèrùn huá]–smazka fontan tizimi.⁷⁷ 喷射 – favvora bo'lmoq, favvora, fantan ~ fe'l so'z turkumi; 润滑- smazka, moylash ~ ot so'z turkumi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan. F+O=O

⁷⁶ Avtomobillarni yaxshi ishlashi, asosan temirlarni zanglab qolmasligini oldini olish uchun ishlatiladigan quyuq moy.

⁷⁷ Moy (yoqilg'i) purkagich truba nazarda tutilmoqda. Ushbu funktsiya bajarilayitganda trubadan sachrayotgan yoqilg'I favvora ko'rinishida bo'ladi.

Yuqoridagi matnda nisbatan zamonaviy va takomillashgan WK-20 ekskalatorining tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqdik. Ushbu ekskalator tuzilmasi murakkab, mayda elementlari nihoyatda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, avtomobilsozlik tarkibidagi barcha avtomobil turlari, ya'ni yengil avtomobil, qishloq xo'jalik mashinalari yoki jamoat foydalanadigan avtomobillar (avtobus, metro, tramvay va hk) va boshqa ko'plab avtomobillar hamma tur uchun umumiy bo'lgan qismlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ammo o'ziga xos qismlarga, ko'rinishlarga ega bo'lgan ehtiyot qismlari ham mavjuddir. Ularnin nomlari ya'ni atamalar ham turlicha bo'lib, o'zaro farq qiladi. Bu esa avtomobilsozlikka oid bo'lgan atamalar nihoyatda ko'pligini anglatadi. Bundan tashqari avtomobillar borgan sari takomillashib, ularga smart ehtiyot qismlar ham o'rnatilib bormoqda va bu orqali ham yangidan-yangi atamalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, biz yuqoridagi matnda uchratgan 遥控器 masofaviy boshqaruv kaliti, teleboshqaruv ya'ni smart kalitlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida yana shuni aytish mumkinki, matnlar bilan ishlash davomida biz nafaqat avtomobilsozlikka oid bo'lgan atamalarni, balki avtomobilni boshqarishdagi harakatlarni ham tahlil qilib chiqdik va ko'pina atamalr usbu fe'llarning mazmunidan va ularga affikslar qo'shilishidan kelib chiqqanligiga guvoh bo'ldik.

XULOSA

Vatanimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanishda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik, chet tillarni ayniqsa, xitoy tilini mukammal o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Ushnu ilmiy tadqiqot ishidan ko'zlangan asosiy maqsad – xitoy tilida avtomobilsozlik atamalarini o'rganishdan iborat.

Xitoy tilida atamalarni yasashini ta'riflash uning turli xil ma'noga ega ekanligini bilan bog'liq. An'anaviy tarzda so'z yasashi deb mavjud bo'lgan so'z birliklari negizida yangi so'zlarni hosil qilinishiga aytiladi. Shunga asosan, so'z yasashi tilning lug'aviy tarkibini turli yo'llar bilan boyishi sifatida ifodalanadi. O'z navbatida tildagi yangi atamalarning soni ortishi ham tilning lug'aviy tarkibini boyitadi. Yangi atamalar tilda amal qiluvchi qoidalar, shuningdek, muayyan til mexanizmini aks ettiruvchi modellar bo'yicha hosil qilinadi. Bu holda u yoki bu tilda yangi so'zlarni yaratish usullari nazarda tutiladi.

Ma'lumki so'z yasashining obyekti bo'lib so'z hisoblanadi va u lingvistikaning boshqa bo'limlarida ham o'rganiladi. So'z yasashining tilshunoslikning so'zni o'rganuvchi boshqa bo'limlaridan bo'lgan farqlaridan biri shundaki, u tilning barcha so'zlarining emas, balki faqat hosila so'zlarnigini o'rganadi. Bunda hosila so'zlar tilning lug'aviy tarkibining alohida olingan birliklari sifatida emas, balki ularning tegishli hosil qiluvchilarga munosabati, ularning o'z so'z yasashi struktirasi – so'z yasashi usuli, yasash modeli va hokazolar bo'yicha bir xil bo'lgan boshqa hosilalar bilan birga o'rganiladi.

Tilning o'zgarish jarayoni murakkabdir. Tilning o'zgaruvchanligi va transformatsiyasini izohlovchi bir qator ilmiy nazariyalar, qarashlar va farazlar mavjud. Bevosita avtomobilsozlik atamalaridan kelib chiqib fikr yurtitadigan bo'lsak, xitoy tilining ushbu sohaga oid atamaologiyasini shakllanish jarayoni uzoq tarixga borib taqaladi. Xitoyda avtomobilsozlik sanoatining hozirgi kunda juda rivojlanganligiga guvoh bo'lamiz. Xitoyda 1931 yildayoq avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Rasmiy ravishda Xitoyda avtomobilsozlik sanoatining tug'ilgan kuni 1956 yil 15 iyun hisoblanadi. Xitoyda ochilgan ilk avtomobilsozlik

zavodi Changchun shahridagi FAW (First Automobile Works – Birinchi avtomobil zavodi) zavodidir. 2006 yilgima'lumotgabinoanmamlakat hududida 6322 ta avtomobilsozlik korxonalari mavjud bo'lgan. Umuman avtomobilsozlikatamaları o'z ichiga texnologik atamalarni oladi.

Xitoyning avtomobilsozlikatamalarining leksik qatlami tilning rivojlanish qonunlariga muvofiq ravishda taraqqiy etib bormoqda.

Ushbu bitiruv malakali ishimizdan quydagilarni xulosa qilib aytishimiz mumkin:

1. Atamaologiya fani sotsial hayotda muhim iqtisodiy–ijtimoiy ahamiyatga ega. Fan–texnologiya va boshqa istalgan soha taraqqoyoti tinimsiz bo'lganidek atamaologiya sohasi ham uzluksiz o'z faoliyatini olib boradi
2. Xitoy tilidagi avtomobilsozlik atamalarining kelib chiqishi yoki chet tillaridagi atamalarini o'zlashtirishi tilning ichki xususiyatlari sababli o'ziga xos ekan. Xitoy tilida avtomobilsozlik atamaları tilidagi so'z yasallshining har uchchala: affiksatsiya, so'z qo'shish, kalka sifatida yasallshi, kabi turlari orqali hosil bo'lar ekan. Ular orasida affiksatsiya usuli orqali yasallgan atamalar nisbatan ko'pligi yaqqol namoyon bo'ldi.
3. Xitoy tilida atamalarning yasallshi, kelib chiqishi yoki chetdan o'zlashtirilishida tilning yozuvi iyerogliflardan iborat ekanligi alohida ahamiyat kasb etganini guvohi bo'ldik.
4. semantic jihatdan o'zlashgan so'zlar, avtomobil atamaları fonetik jihatdan o'zlashgan atamalarga nisbatan ancha qismni tashkil qiladi. Bundan tashqari, fonetik jihatdan o'zlashgan avtomobilsozlikga oid so'zlar asosan, avtomobil markalari ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Avtomobil turlari va mayda qismlari, elementlari semantic kalkalash natijasida yuzaga kelgandir.
5. Ikki, uch hamda to'rt va undan ortiq morfemali avtmobilsozlikka oid atamalarni struktur jihatdan tahlil qilib chiqqanda, miqdor jihatdan uch morfemali atamalar ustun ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu atamalarning

ko'p qismi asosan, 器-apparat, texnikalarni ko'rsatishda ishlatiladigan affiksi va 表-jadval, ko'rsatgich ma'nolarini ifodalaydigan so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi hisobiga ham miqdor jihatdan ko'payish holatlari kuzatiladi.

6. Avtomobilsozlik tarkibidagi barcha avtomobil turlari, ya'ni yengil avtomobil, qishloq xo'jalik mashinalari yoki jamoat foydalanadigan avtomobillar (avtobus, metro, tramvay va hk) va boshqa ko'plab avtomobillar hamma tur uchun umumiy bo'lgan qismlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ammo o'ziga xos qismlarga, ko'rinishlarga ega bo'lgan ehtiyot qismlari ham mavjuddir. Ularning nomlari ya'ni atamalar ham turlicha bo'lib, o'zaro farq qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Asosiy manbalar

1. 柴世霖。试论汉语双音动词重叠形式的问题。河北大学学报，1980 年低期。－ 65 页。
2. 陈前软。动词重叠的情况特征及气体的地位，语言教学与研究。－ 北京，2001 年。－ 235 页。Chen Qienruan. Dongci chongdiede qingkuang tezheng ji qitide diwei, yuyan jiaoxue yu yanjiu. – Beijing, 2001. – 235 ye.
3. 成语词典。上海辞书出版社，1992 年。－ 275 页。
4. 丁声树等。现代汉语语法讲话。北京：商务印书馆，1961 年。－ 124 页。Ding Shenshu deng. Xiandai hanyu yufa jianghua. Beijing: Shangwu yinshuguan, 1961. – 124 ye.
5. Gao Wenda, Wan Lijin. Cihui zhishi. – Jinan, 2006. – 175 ye.
6. 汉俄词典。商务印书馆，上海，2002 年。－ 348 页。
7. 故播刘。现代汉语动词与形容词特点。－ 北京，2003 年。－ 244 页。Hu Boliu. Xiandai hanyu dongci yu xingrongci tedian. – Beijing, 2003. – 244 ye.
8. 故播刘。实用现代汉语语法。－ 北京，2003 年。－ 455 页。Hu Boliu. Shiyongxiandaihanyuyufa. – Beijing, 2003. – 455 ye.
9. 龚军。狼的故事。21 世纪出版社，2001 年。－ 115 页。
11. 李稿。现代汉语动词研究。－ 北京，2004 年。－ 187 页。Li Gao. Xiandai hanyu dongci yanjiu. – Beijing, 2004. – 187 ye.
12. 实话实说。商务印书馆，2001 年。－ 340 页。
13. 语言学名词解释。－ 北京：商务印书馆，1960。－ 156 页。Yuyanxue mungci jieshi. – Beijing: Shangwu yinshuguan, 1960. – 156 ye.

Adabiyotlar

14. Каримов И.А. Баркамолавлодорзуси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 245 б.
15. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Ж.8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 526 б.

16. Абдурахмонов Х. Ўзбек тили амалий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2003. – 189 б.
17. Азизов О. Тилшуносликга кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – 97 б.
18. Воропаев Н.В. О структуре слов-редупликатов в современном китайском языке. – М. 2002. – 49 с.
19. Вархапович Л.В. Лингвистика в таблицах и схемах. – Минск: Новое знание, 2003. – 127 с.
20. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – 321 с.
21. Горгониев Ю.А. Прилагательные с удвоенным комплексом в китайском языке // Языки Юго-Восточной Азии. Под ред. Алиева Н.Ф., Короткова Н.Н. – М.: Наука, 1980. – 265 с.
22. Гуревич И.С. Сложные глаголы в китайском языке 3-5 веков // Спорные вопросы строя китайского языка. – М., 1965. – 178 с.
23. Драгунов А.А. Грамматическая система современного китайского языка. – Л., 1962. – 250 с.
24. Задоев Т.К., Хуан Шуин. Основы китайского языка (Основной курс). – М.: Наука, 1986. Т.2. – 245 с.
25. Исаенко Б.С. К проблеме границ китайского слова. Опыт китайско-русского фонетического словаря. – М., 1957. – 145 с.
26. Камалов Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Т., 1953. – 157 б.
27. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. – Т.: ТошДШИ, 2003. – 119 б.
28. Каримов А.А. Хитой тилининг асосий грамматик бирликлари. – Т., 2001. – 57 б.
29. Китайский язык / Коротков Н.Н., Рождественский Ю.В., Сердючко Г.П., Солнцев В.М.. – М.: Наука, 1961. – 180 с.
30. Коротков Н.Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. – М., 1968. – 400 с.

31. Кочергин И.В. Очерки лингводидактики китайского языка. – М.: Восток -Запад, 2006. – 190 с.
32. Крючкова О.Ю. Редупликация как форма словообразования. – М.: Муравей, 2007. – 125 с.
33. Курдюмов В.А. Курс китайского языка: теоретическая грамматика. – М.: Цитадель–трейд, Лада, 2005. – 573 с.
34. Лайонз Дж. Язык и лингвистика. – М.: УРСС, 2004. – 317 с.
35. Ли Цзинси, Лю Шижу. Учебные материалы по грамматике китайского языка. – Пекин, 1959. – 595 с.
36. Ошанин И.М. Слово и части речи в китайском языке. – М., 1946. – 125 с.
37. Носирова С. Хитой тилида дипломатик атамаларнинг лексик–семантик таҳлили. Т., 2010. – 150б.
38. Семенас А.Л. Лексика китайского языка. – М.: Муравей, 2000. – 312 с.
39. Тань Аошуан. Видо–временное оформление в китайском языке. – М., 1987. – 120 с.
40. Тань Аошуан. Учебник современного китайского разговорного языка. – М.: Наука, 1988. – 340 с.
41. Турсунов У., Мухторов Ж, Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 120 б.
42. Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск: Наука, 1981. – 130 с.
43. Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. – М.: Муравей, 2003. – 223 с.
44. Хашимова С. Хитой тилиди сўз ясашиши. – Т., 2012. – 160б.
45. Хашимова С. Носирова С. Хитой тили грамматикаси. – Т., 2011. – 220б.
46. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт, такрорий сўзлар. –Ўзфанакаднашр, Т.: 1963. – 146 б.

47. Ғуломов А.Ғ. Ўзбек тилида сўз яшаш усуллари ҳақида. – Т.: Ўзбекистон Фанлар Академиясининг Тил ва Адабиёт Институти, 1950. – 118 б.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar

48. Bloomfield L. Language. – New York, 1963. – 390 p.

49. Chao Yuen-ren. A grammar of spoken Chinese. Univ. of Californiya press, 1968. – 300 p.

50. 陈前软。基础汉语课本。北京：商务印书馆，1991年。– 145页。

51. 黄菠菜。实用现代汉语语法。北京，1989年。– 378页。

52. 李海。形容词与否定副词“不”组合的意义，句法制约。南京师范大学出版社，1991年，第2期。– 98页。

53. 李金斯“汉语词汇研究”，2001，– 71页。

54. 芝警功。动词重叠的语法意义。中国语文 2006年第2期。– 174页。

Lugʻatlar

55. Акимов Т., Кыраубаев Ш. Хитойча–ўзбекча–русча фразеологик луғат (汉乌俄成语词典). – Т.: Шарқ, 2002. – 280 б.

56. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.

57. Большой русско–китайский словарь. Пекин: Шанву инштуан, 1993. – 1890 с.

58. Cihai. – Пекин, 1979. – 2215 с.

59. Китайско–русский словарь. Сост. Фу Чонг. –Шанхай, 2004. – 1249 с.

60. Лингвистический энциклопедический словарь. 2–издание, дополненное. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 707 с.

61. Ўзбек тилининг изохли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981. – 632 б.

62. Ўзбек тилининг изохли луғати. 2 том. – М.: Рус тили, 1981. – 715 б.

63. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.

64. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Наука, 1989. – 580 с.

65. Словарь иностранных языков. – М.: Русский язык, 1979. – 1145 с.

66. Richards J.C. Longman Dictionary of language teaching and applied linguistics. Cambridge University press, 2000. – 580 p.

67. The New Webster's Encyclopedic Dictionary of the English language. N.Y., 1995. – 2685 p.

68. Ҳожиёва А. Тилшуносликтерминларинингизоҳлилуғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.

69. 常用修语词典。上海辞书出版社，1986年。 – 340页。

70. 俄汉词典。商务印书馆，上海，1992年。 – 450页。

71. 俄汉大辞典。商务印书馆，北京，1999年。 – 294页。

72. 汉俄成语小词典。上海译文出版社，1968年。 – 175页。

73. 刘粤。现代汉语词典。商务印书馆，北京，2002年。 – 545页。

74. 西素简汉俄词典。上海，1995年。 – 348页。

75. 中国成语大辞典。上海辞书出版社，1998年。 – 275页。

Electron lug'atlar

76. AABBY lingvo x3

77. PLECO english –chinese chinese – English dictionary

78. trainchinese electron lug'ati

Internet sahifalari

79. <http://www.ncac.gov.cn> 77. [://www.cninaview.org](http://www.cninaview.org)

80. <http://www.pku.edu.cn>

81. www.baidu.com internet sahifasi. 全国科学技术名词审定委员会. 中国科技术语. 2013.

82. www.baidu.com internet sahifasi. 中国科学院. 术语标准化与信息技术. 2013.

83. www.baidu.com internet sahifasi. 百度文库